

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“TELEKOMMUNIKATSIYA  
TEXNOLOGIYALARI”**

**yo‘nalishi**

**“ZAMONAVIY AUDIO-VIDEO TEXNOLOGIYALAR”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV – U SLUBIY MAJMU A**

**TOSHKENT - 2016**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



---

**“ZAMONAVIY AUDIO-VIDEO  
TEXNOLOGIYALAR” moduli bo'yicha**

---

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOHKENT - 2016**

**Mazkur o`quv-uslubiy majmua Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining  
2016 yil 6 apreldagi 137-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv reja va  
dastur asosida tayyorlandi.**

---

Tuzuvchi: TATU, «Audiovizual texnologiyalari»  
kafedraasi assistenti ..... O.Narzulloyev

Taqrizchi: TATU, AKT bo`yicha maslahatchi prorektori,  
Janubiy Koreyalik mutaxassis ..... Li Chul Su

---

**O`quv-uslubiy majmua Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2016 yil 29 avgustdagi 1(661)-sonli bayonnoma)**

## PEER REVIEW

### TO THE EDUCATION PROGRAM FOR THE COURSE OF RETRAINING PEDAGOGUE CADRES OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS IN THE DIRECTION OF "TELECOMMUNICATION TECHNOLOGIES"

The curriculum is devoted to strengthen the knowledge and retrain of academic staff of higher education during 2 months period.

The title and content of the curriculum to direction of "Telecommunication technologies" corresponds to the typical curriculum specialty and educational standards, qualification requirements to a specialist of ICT. The curriculum consists of the modules: legal foundation of higher education, innovative practices in education and teaching competencies, application of ICT in educational process, practical foreign language, system analysis and decision making. Moreover, special disciplines are Mobile communication systems, Data communication networks (IMS, NGN), Digital TV. The topics in the curriculum are based on foreign experience and modern technologies.

The modules mentioned in the program are formed on retraining pedagogues and improving qualification in the field of education, general requirements for the quality and preparation as well as the syllabus. With this, teachers of higher education institutions will be provided with competencies of professional skills, improving continual scientific activity, organizing educational-behavioral process and structural analysis of managing, as well as optimal decision-making in pedagogic situations by having them acquire modern education and innovation technologies on specialty, effective usage of advanced foreign experience, implementation of information communication technologies to teaching process, level of intensive learning of foreign languages.

This program will help to ensure quality, in line with international standards, training and professional development of highly qualified cadres in the field of telecommunication technologies.

Vice rector of ICT, TUIT



*[Handwritten signature]*

**“ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ”  
ЙЎНАЛИШИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ПЕДАГОГ  
КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ  
КУРСИ УЧУН ТАЙЁРЛАНГАН ЎҚУВ ДАСТУРИГА**

**ТАҚРИЗ**

Дастур Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон Фармонидаги устувор йўналишлар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, ўқув дастурни тузишда муаллифлар замонавий талаблар асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларининг мазмунини такомиллаштиришни алоҳида эътиборга олишган.

Дастур мазмуни олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари ва қонунчилик нормалари, илғор таълим технологиялари ва педагогик маҳорат, таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш, амалий хорижий тил, тизимли таҳлил ва қарор қабул қилиш асосларини ўзлаштириш бўйича билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришни назарда тутди.

Шунингдек, ўқув дастур ўз камрови билан тингловчиларга таълимда интернет технологиялари, замонавий аудио-видео технологиялар, Электр занжирлар ва тизимлар таҳлили, Маълумот узатиш тармоқлари (IMS, NGN), мобил алоқа тизимлари, Рақамли телевидения мутахассислик фанлари бўйича билим беришга мўлжалланган бўлиб, шу дастур миқёсида курсни ташкил этиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайман.

Ўқув дастурдаги маълумотларни инобатга олган ҳолда, Телекоммуникация технологиялари йўналиши бўйича яратилган ушбу ўқув дастур тингловчилар учун фойдали бўлиб, педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курси талабларига тўлиқ жавоб беради ва уни ўқув жараёнида қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Телекоммуникация инженерининг  
кафедра мудири, т.ф.н. доценти



А.Эшмуродов

# MUNDARIJA

1

Ishchi dastur

2

Modulni o`qitishda  
foydalaniladigan  
interfaol ta`lim  
metodlari

3

Nazariy  
materiallar

4

Amaliy  
mashg`ulot  
materiallari

5

Keyslar banki

6

Mustaqil  
ta`lim  
mavzulari

7

Glossariy

8

Adabiyotlar ro`yxati

I BO`LIM

ISHCHI DASTUR

## I.ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu dasturda raqamli videoning xususiyatlari, raqamli audio-video qurilmalar va dasturlar, video montaj dasturlari, audio montaj dasturlari, video ranglar bilan ishlash, videoda matnlar va effektlardan foydalanish muammolari bayon etilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Zamonaviy audio-video texnologiyalar **modulining maqsad va vazifalari:**

- Raqamli audio-video qurilmalar va dasturlar foydalanish, video montaj dasturlaridan foydalanish, Audio-video montaj jarayonlar bilan ishlash, ranglarni berish, Videoda matnlar va effektlardan foydalanish va ularni amaliyotga qo‘llash malakaviy ko‘nikmalarini shakllantirish;

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Zamonaviy audio-video texnologiyalar” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:



**Tinglovchi:**

- Raqamli videoning xususiyatlari ulardan foydalanish;
- Raqamli audio-video qurilmalar va dasturlar bilan ishlash **bilimlarga ega bo'lishi**;

**Tinglovchi:**

- Video montaj dasturlari foydalanuvchi interfeysini yaratish;
- Audio montaj dasturlari bilan ishlash;
- Videoda matnlar va effektlardan foydalanish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;

**Tinglovchi:**

- Raqamli audio-video qurilmalar va dasturlar foydalanish;
- Sifatli HD video yaratish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.

**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Zamonaviy audio-video texnologiyalar” kursi ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

**Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Zamonaviy audio-video texnologiyalar” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Ta’limda internet texnologiyalari” va “raqamli televideniya” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning mobililovalar yaratish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy audio video qurilmalardan foydalanish va audio video muxarrirlash dasturlaridan foydalanib yuqor tiniqlikdagi video yaratishni o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	
1.	Raqamli audio-video qurilmalari va dasturlari. Raqamli videoning tarkibiy qismi. Kameralar va ularni baholash. Zamonaviy audio qurilmalar va ulardan foydalanish.	8	6	2	4	2
2.	Film yaratish texnologiyasi. Videoda matnlar va effektlardan foydalanish. Tsvirlashning algoritmlari va usullari. Kinotelefilm. 3D- model-lashtirish. Amaliy televideniya texnologiyalari.	6	4	2	2	2
<b>Jami:</b>		<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>6</b>	<b>4</b>

**NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI****1 - mavzu: Raqamli videoning xususiyatlari.**

Raqamli videoning xususiyatlari tushunchasi. Yuqori tiniqlikdagi videolar bilan tanishish va raqamli videoning tarkibiy qismlarnini o'rganish. SD videodan HD videoning farqi. Raqamli videolarni yaratishda foydalaniladigan dasturlar.

**2 - mavzu: Raqamli audio-video qurilmalari va dasturlari.**

Zamonaviy raqamli audio-video qurilmalari va dasturlari bilan tanishish. Stereo ovoz yozish va ularda foydalaniladigan qurilmalar. HD video yaratishda foydalanadigan va qayta ishlaydigan dasturlar.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI****1-amaliy mashg'ulot. Audio video montaj dasturlari.**

Video yaratishda kerakli bo'lgan instrumental dasturiy vositalarni

oʻrnatish va video yaratish yaratish koʻnikmalariga ega boʻlish. Audio montaj dasturlari bilan tanishish. Audioni miksherlash va darajalarini oʻlchash. Audioni kesish va keraksiz shumlardan tozalash. Ovoz uchun tahrirlash ilovasini ishlatish va foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlish.

### **2-amaliy mashgʻulot. Videoda ranglar bilan ishlash.**

Adobe Premier pro dasturidan foydalanib Videoni ranglarini sifatini oshirish. Rang filterlaridan foydalanib video sifatini oshirish va oq-qora ranglar sifatini oʻzgartirish koʻnikmalariga ega boʻlish.

### **3-amaliy mashgʻulot. Videoda matnlar va effektlardan foydalanish.**

Adobe Premier Pro va After Effect dasturlaridan foydalanib videoda matnlar yozish va ozilgan matnlarni boʻyash. Inson koʻziga yoqadigan va toliqtirmaydigan matnlar bilan ishlash. Matnlarga animatsiya berish.

## **OʻQITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul boʻyicha quyidagi oʻqitish shakllaridan foydalaniladi:

- maʼruzalar, amaliy mashgʻulotlar (maʼlumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (koʻrilayotgan loyiha yechimlari boʻyicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi boʻyicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **BAHOLASH MEZONI**

<b>№</b>	<b>Baholash turlari</b>	<b>Maksimal ball</b>	<b>Ballar</b>
1	Keys topshiriqlari	2.5	1.2 ball
2	Mustaqil ish topshiriqlari		0.5 ball
3	Amaliy topshiriqlar		0.8 ball

# II BO`LIM

MODULNI O`QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN  
INTERFAOL TA`LIM  
METODLARI


## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

### «FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosa chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



-ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “**Raqamli televideniya HD formatda video taqdim etadi**”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**Венн Диаграммаси методи**

**Методнинг мақсади:** Бу метод график тасвир орқали ўқитишни ташкил этиш шакли бўлиб, у иккита ўзаро кесишган айлана тасвири орқали ифодаланadi. Мазкур метод турли тушунчалар, асослар, тасавурларнинг анализ ва синтезини икки аспект орқали кўриб чиқиш, уларнинг умумий ва фарқловчи жиҳатларини аниқлаш, таққослаш имконини беради.


**Методни амалга ошириш тартиби:**

- иштирокчилар икки кишидан иборат жуфтликларга бирлаштириладилар ва уларга кўриб чиқиладиган тушунча ёки асоснинг ўзига хос, фарқли жиҳатларини (ёки акси) доиралар ичига ёзиб чиқиш таклиф этилади;

- навбатдаги босқичда иштирокчилар тўрт кишидан иборат кичик гуруҳларга бирлаштирилади ва ҳар бир жуфтлик ўз таҳлили билан гуруҳ аъзоларини таништирадилар;

- жуфтликларнинг таҳлили эшитилгач, улар биргалашиб, кўриб чиқиладиган муаммо ёхуд тушунчаларнинг умумий жиҳатларини (ёки фарқли) излаб топадилар, умумлаштирадилар ва доираларнинг кесишган қисмига ёзадилар.

**Намуна: Audio-video montaj dasturlaridan foydalanish bo‘yicha**



# III BO`LIM

NAZARIY  
MATERIALLAR

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-Mavzu: Raqamli audio-video qurilmalari va dasturlari.

##### Reja:

- 1.1. Raqamli videoning tarkibiy qismi.
- 1.2. Analog va SD bilan ishlash.
- 1.3. Raqamli videoning sifati.

**Tayanch iboralar:** *HD (high definition, SD (standart definition), Digital Cinema, 2K, kadr, treklar, piksellar, vertikal, gorizontal, audiotreklar, stereo, timecode, DV (digitalvideo), DVD (digital video disc).*

#### 1.1. Raqamli videoning tarkibiy qismi.

**HD nima o'zi.** Biz video yoki film yaratmoqchimiz nimalarga e'tibor berishimiz kerak. Yani sifatini yaxshilash manosida. Yaratayotgan loyihada eng yaxshi yo'li qaysi videoga olish mumkin. 180 va 720 HD nima farqi bor. Filmlarda raqamli videoning qaysi turiga ko'proq e'tibor beriladi. Kodek nima o'zi. Audio haqida bilishim uchun nimalarga e'tibor berishim kerak.

Bu ma'ruzada biz raqamli videoning asoslari to'g'risida tushuntirib o'tmoqchimiz.

Siz yaratayotgan videoyingizni Hd da yaratayapsizmi. Nima uchun. Chunki barcha raqamli videolarning o'lchamlari yuqoriroq standard aniqlikka qaraganda (SD). Boshqacha qilib aytganda, agar siz eskirgan audio video qurilmalardan foydalanmasangiz siz yaratayotgan loyiha HD bo'lish darajasi yuqori.

Ammo qachonki raqamli film yaratuvchilar HD video olish to'g'risida gaplashganlarida ular har doim quyida keltirilgan nomerlar to'g'risida bahslashadilar. 720, 1080, raqamli kino.

720 bu kadrning o'lchami bo'lib 1280x720 va ketka-ket o'qish algoritmiga asoslanadi. U quyidagi kadrlar chastotasini qo'llab quvvatlaydi 23.976p, 24p, 29.97p, 30p, 50i, 59.94i, va 60i va 16:9 mashtabda.


1080 bu kadrning o'lchami bo'lib 1920x1080 va ketma-ket va qator tashlab o'qish algoritmiga asoslanadi. U quyidagi kadrlar chastotasini qo'llab quvvatlaydi 23.976p, 24p, 29.97p, 30p, 50i, 59.94i, va 60i va 16:9 mashtabda.

**Digital cinema** bu 35mm lentaga nisbatan taqqoslaganda yuqori tiniqlikdagi



raqamli format hisoblanadi. Uning o'lchami gorizontal pixsellari 2000 yoki undan yuqoriroq va ketma-ket algoritmgaga asoslanadi. Va odatda kadrining tezligi 24 p ammo bir nechta kameralar har xil formatda oladi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha formatlar yuqori sifat hisoblanadi. 1080ning har bir kadri 720 ning kadrining o'lchamiga nisbatan ikki marta katta. Ammo 720 sekundiga 60kadrni taqdim etadi 1080 ning kadr tezligiga nisbatan ikki marta yuqoriroq ma'lumot va 2k digital cinema esa 1080 HD nisbatan biroz kattaroq. Shuning uchun aytish qiyin qaysi format aynan yaxshiroq.



**1.1. rasm.** Tasvir o'lchamlari

1080 Hd ning kadri 720 nisbatan ikki marota kattadek ammo 720ning kadr tezligi 60p 1080 ga qaraganda. 2k kattaroq 1080HD dan.

Oddiy qilib aytganda barcha raqamli video elektron signallarning jamlanmasi bo'lib kamera tomonidan yozib olinadi: videokaseta, disklar, qattiq disklar, flesh xotiralarda. Signal qanday qilib saqlanadi, barcha raqamli videolar treklardan, kadrlardan, qatorlardan, piksellarda va audio signallardan.

### **Treklar**

Tasvirga olish davomida sizning video kamerangiz audio va video ma'lumotni tasvirga oladi va elektron ma'lumotga aylantiradi va uni media qurilmalarda saqlaydi. Bu ma'lumotlarning har biri alohida trekda joylashadi. Asosan bir video trek va ikkita audio trekdan iborat bo'ladi. Yana bir qo'shimcha ko'pgina raqamli kameralar ma'lumot treklari shaklida yozadi misol uchun kunlarning vaqti, kamera sozlamalari, vaqtlarni ma'lumot ko'rinishida yozib boradi.

### **Kadrlar**

Video treklar harakatsiz tasvirlarning yoki kadrlardan ketma-ketligidan tashkil topgan. Agar ularni ketma-ketlikda joylashtirsak film hosil bo'ladi. Videoning kadrlari plyonkalarining kadrlariga juda o'xshash. Siz ularni

ko'rolmaysiz. **Buning uchun sizga kompyuter kerak bo'ladi ya'ni har bir kadri monitorga ko'rsatish uchun.** Harakat iluziyasini berish uchun videoning har bir sekundi harakatsiz tasvirlarning maxsus nomerlaridan tarkib topgan bo'ladi. Kadrlarning tezligi deb bir sekunddagi harakatsiz tasvirlarning yoki kadrlar soniga aytiladi. Birinchi bo'lib harakatlanuvchi filmlar yaratilganida videoda sekundiga 18 ta kadr harakatlangan. Filmida sifatli audio paydo bo'lishi bilan videoni 24 ta kadrga ko'tarish majbur bo'lindi sababi tasvir bilan audio sinxron ishlashi uchun. HD bilan bog'liq juda ko'p turdagi kadrlar tezligi bor.

Buning sababi mavjud turli xil axborot vositalariga HD mos bo'lishi kerak edi. Ya'ni kino, Amerikaning analog video uzatish va Yevropaning analog video uzatish tizimlarida.

24p va 23.97p – filmdagi kadrlar tezligi.

29.97p, 30p, 59.94i, 60i, 59.94p, va 60p – Amerikaning analog televideoniyasiya asoslangan kadrlar tezligi.

25p va 50i Yevropaning analog televideoniyasiya asoslangan kadrlar tezligi.

Agar siz film loyihasini yaratmoqchi bo'lsangiz yuqorida keltirilgan ro'yxatga asoslanishingiz kerak.

### Satrlarni o'qitish

**Videoning har bir kadri gorizontol satrlarning ketma-ketligidan tashkil topib satrlar o'qish ekran bo'ylab yuqorisida boshlanadi .** Bazi bir videolarda satrni o'qish ekranni to'ldirib tepadan boshlanib oxirigacha davom etadi. Bu jarayon ketma-ket o'qish deb nomlanadi.

Boshqa bir videolarda esa satrni o'qish ekranning yuqorisidan boshlanib to eng pastigacha faqat toq sonlarni o'qiydi so'ng bu jarayon juft satrlarda amalga oshiriladi. Bu jarayon qator tashlab o'qish deyiladi.

Monitordagi har bir boshidan to pastigacha o'qigan satr bir sohani tashkil etadi. Qator tashlab o'qishda ikkita soha bo'ladi. Birinchisi toq satrlarni o'qib toq sohasi va ikkinchisi juft satrlarni o'qitib juft sohani tashkil qiladi. Ikkalasini qo'shib bitta kadr hosil bo'ladi.

Agar sizda eng yaxshi biri qaysi degan savol tug'lsa aniq javob berish qiyin. Ammo ketma-ket o'qish bu juda oddiy va juda intuitiv, agar tanlov berilganida ko'pgina film yaratuvchilar ketma-ket o'qish usulini tanlaydi. Agar sizning loyihangiz televideoniyada uzatish uchun yoki internet uchun bo'lsa maslahat beramiz HD ning qator tashlab usulidan foydalanish kerak. Qator tashlab o'qishning afzalligi chastota palasasini kamaytirish mumkin. Ketma-ketlikning afzalligi sport videolarini yaratishda yaxshi.



**1.2. rasm. Kadri qator tashlab o‘qishi**



**1.3. rasm. Kadri ketma-ket o‘qishi**  
**Piksellar**

«Tasvir elementi» uchun qisqacha piksel video tasvirning eng kichik komponenti bo‘lib hisoblanadi. HD videoning 720 kadri kengligi bo‘yicha 1280 va balandligi bo‘yicha 720 piksel setkadan tashkil topgan. HD videoning 1080 kadri – kengligi bo‘yicha 1920 piksel va balandligi bo‘yicha 1080 pikseldan iborat. Ushbu pikseli o‘lchamlar video kadrining kengaytmasini tavsiflaydigan bitta usul bo‘lib hisoblanadi.

### **Vertikal kengaytma**

Ekrandagi gorizontalar chiziqlar soni vertikal kengaytma sifatida ma’lumdir. Har bir video kadrdagi gorizontalar chiziqlarining ayrimlaridan axborotni uzatish uchun foydalaniladi, ushbu axborot ko‘rinadigan tasvirning qismi bo‘lib hisoblanmaydi, lekin bu haqida tashvishlanish shart emas. Masalan, 1080 HD vertikal kengaytma 1125 vertikal qatorlardan iborat, ulardan 1080 tasi ko‘rinadigan qatorlardir.

### **Gorizontalar kengaytma**

Tasvir sifati haqida so‘z borganda, «kengaytma» haqida eshitasiz, bu holat ko‘p hollarda videokamera haqida muhokama olib borilganda yuzaga keladi. Kengaytma haqida gap borganda gorizontalar kengaytmaga murojaat qilinadi, ya’ni

gorizontal qatorlardan har birida qancha alohida piksellar (yoki nuqtalar) mavjud. Vertikal kengaytma qayd etiladi, lekin gorizontal kengaytma o'zgaruvchan bo'lib hisoblanadi.


Inson ko'zi ishlaydigan bir nechta qora-oq qatorlar, agar qatorlar juda kichik bo'lsa, kulrang shovqinlarga o'xshash bo'ladi. O'lchov qatorlarning gorizontal kengaytmasi noaniq bo'lgan kulrang massaga o'zgarishdan oldin, qora-oq qora qatorlarning navbatma-navbat kelishi video tasvirga mos kelishi mumkin. Monitor, kamera, apparat vositalari, xonaning yorug'ligi, monitoring joylashgan o'rni, monitordan qanchalik uzoq masofada bo'lish va ko'rish imkoniyati qanchalik yaxshi bo'lish kabi omillarga asosan o'zgarib turadi. Ayrim kameralar, linzalar va monitorlar juda yaxshi vertikal qatorlar ni ekranga chiqarish uchun katta sig'imga ega, ushbu qurilmalarda yaxshi «kengaytma» mavjuddir.

### **Plenkali kengaytma**

35-millimetrli filmning kengaytmasi HD video 1080 yoki 720 kengaytmasidan yuqori bo'ladi. Analogli tashuvchida, shunday qilib, piksellar mavjud emas, lekin unda 2048 1080 piksellar yoki 2K minimum kengaytma mavjud. Boshqacha aytganda, raqamli video format uchun, 35 millimetrli filmning kengaytmasiga yaqinlashtirish uchun 2048 1080 yoki undan ortiq piksellar kengaytmasi bo'lishi kerak. Ushbu kengaytma bo'lgan raqamli video formati, ko'p hollarda HD format emas, balki raqamli kino formati kabi keltiriladi. Raqamli kino kengaytmasi 2 K dan 4 K gacha (yoki 4096 2160) diapazonda formatlanadi. QIZIL – kinoning raqamli diapazonida futlarda o'lchanadigan uzunlikni hosil qiladigan raqamli video kamera, ko'p hollarda badiiy filmni suratga olish uchun foydalaniladi.

### **Tasvir formati**

Tasvir kengligining balandlikka nisbati tasvir formati deb ataladi. HD video (1080 va 720) va 35-millimetrli plenochkali formatlar HD video uchun 1.78:1 (yoki 16:9) va 1.85:1 ko'pgina 35 millimetrli film uchun tasvirning keng ekranli xususiy formatga ega. Qoidaga ko'ra, «kinematografik» kengroq ko'rib chiqiladi. Keng formatda suratga olish katta axborotni o'tkazish va ko'rish maydonidagi usullarni haqiqatdagidek tasavvur qilish imkonini beradi. Dastlabki ishlab chiqilgan SD va analogli televidion displeylarda va kompyuterlar monitorlarida 4:3, yoki 1.33:1 turdagi tasvir formatlari mavjud. Bundan tashqari, 16 MMS, 8 MMS, va Super8 filmda 4:3 tasvir formati mavjud.



### **Pikselli shakl**

Ko‘pgina yangi raqamli video foydalanilayotgan kvadrat piksellarni formatlaydi, lekin DV va HDV kabi ayrim juda eski formatlar uchun kvadrat bo‘lmagan piksellardan foydalaniladi. Agar video uchun kvadrat bo‘lmagan piksellardan foydalanilsa, yakunlovchi bosqichda ayrim qo‘shimcha qadamlar orqali o‘tishga to‘g‘ri keladi. Har tomonlama axborot olish uchun pikselli jihatga qarang.

### **HD tavsifi**

“HD” video muayyan narsa bo‘lmaganligi sababli, turli tipdagi HD video odatda uchta narsani: pikselli kengaytma, freymlar yoki sekundiga maydonlar sonini va skanlash (navbatma-navbat keladigan yoki progressiv) metodni tavsiflaydi. 720/24p - 1280 720 kengaytmali HD video va 24 kadrlar o‘tishi sekundiga progressiv skanlangan kadrlar. 1080/60i – 1920 1080 kengaytmali HD va sekundiga 60 qatorlararo maydonlar darajasining freymi. 1080/60i – televideniya uchun eng ommaviy bo‘lgan HD.

Konfiguratsiyalardan biri bo‘lganligi sababli ko‘p hollarda 1080i deb ataladi. Shuningdek 720/60p 720 punktlarga taaluqlidir. Ushbu kitobda tushunmovchiliklarni oldini olish maqsadida (1080/60i) to‘liq tavsiflarni keltirib o‘tamiz.

720 va 1080 dan kengaytmalarni birgalikda qo‘llaydigan kadrlar o‘tishining butun diapazoniga e‘tibor qaratishimiz uchun foydalanamiz. Shuningdek qatorlararo HD video fremlar o‘rniga maydonlar soni bilan tavsiflanadi. 1080/60i da sekundiga 60 maydonlar mavjud.

Progressiv skanlangan HD video fremlar soni bilan tavsiflanadi.

720/60p da sekundiga 60 freymlar mavjud.

### **Audiotreklar**

Tovush filmning 50 foizini tashkil etadi. Bu video kabi juda murakkab jarayon emas. Avval keltirib o'tganimizdek, har bir HD videofayl videotreykdan va ikkita (yoki undan ortiq) audiotrekdan iborat bo'ladi. HD faylda ko'p karrali audiotreklar bo'lishi mumkin. Ular turlicha konfiguratsiyaga ega bo'lishi yoki bog'langan bo'lishi mumkin.

### **stereo tovush**

Tovush stereo maxsus usul bilan aralash holda ikkita audio kanaldan iborat. Bitta kanal chapga balanslanadi, ikkinchi kanal o'ngga balanslanadi. "Stereo" qaytadan eshittirilganda, tovushlarni qabul qiladigan uch o'lchamli idrok etish jarayoni yuzaga keladi

Stereoga yozib olinadigan tovushning bitta tipi musiqa bo'lib hisoblanadi. Tovush stereo odatda kinofilmlar yoki serialni namoyish etish uchun ovoz yo'llarini oxirida birlashtirish uchun rezervlanadi. Ko'pgina stereo video kameralarga mikrofonlar o'rnatiladi, lekin ushbu mikrometrlar jiddiy ishlab chiqarish ishlari uchun mos kelmaydi.

## **1.2. Analog va SD bilan ishlash**

### **Nima uchun 29.97**

Amerikada birinchi marta video uzatish tizimi standartlashtirilganda televideniya tasvir oq va qora jo'natilgan va kadrning tezligi sekundiga 30tani tashkil qiladi. Rangli texnologiya qo'shilganidan so'ng uzatuvchi muhandislar oq-qora televideniya bilan rangli tasvirni farqini bilib olish kerak bo'lib qoldi. Rangli videoning kadr tezligi 1/1000 foizga kamroq

$$15,750 \text{ Hz} / 15,734.2657 \text{ Hz} = 1.001$$

$$\text{Chastotalar nisbati } 1.001:1$$


$$30 / 1.001 = 29.97$$

### **Timecode**

Raqamli videoni tasvirga olganingizda sizning kamerangiz vaqtning trekini saqlab turadi va siz yozib olgan har bir kadrning nomerlarga ajratadi. Bu postproduction uchun foydali hisoblanadi. Chunki agar siz loyihangizni bir tizimdan boshqasiga uzatmoqchi bo'lsangiz vaqti aniq bo'ladi va siz muammoga uchramaysiz.

### 1.3.1 Raqamli videoing sifati

Obyekt kamera xotira montaj dasturi ekran



Tasvir sifati ta'minlovchi zanjir (yorug'lik, o'rni, mahsulot dizayni), kamera(optic linzasi, raqamlashtirish, formatni tanlash), montaj dasturi(vositachi formatlar, yetkazuvchi formatlar) va ekran.

Bizda oddiy savol tug'ilishi mumkin HDV kamerada olingan 1080/24p tasvir bilan Sony XDCAM olingan 1080/24p ning nima farqi bor. Kamera linzasinig sifati va tasvir sensoriga bog'liq yana muhim sabablaridan biri siqish.

Raqamli video fayllarning to'liq o'lchamlari juda katta. HD video 1080p kadrda taxminan 2 million piksel mavjud. Endi tasavvur qilamiz 24 ta kadr sekundiga bo'lsa bizga juda ko'p joy kerak bo'ladi ma'lumotni saqlash uchun. Kodek video ma'lumotlarni umumiy qismini kamaytirish uchun keraksiz visual ma'lumotlarni kamaytirish yoki tashlab yuborish va sizing video faylingizni haqiqiy vaqtda ko'rish va ushlab olishda yordam beradi.

**Rang chuqurligi (rang o'lchami)**– video tasvirlarni shakllantirishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan ranglar sonini ko'rsatuvchi xususiyat. Raqamli videoda ranglar soni bitlarda o'lchanadi. Bir bit mos ravishda ikki xil qiymatni (0 yoki 1) qabul qilish mumkin va faqat ikkita rangni mos ravishda kodlash (odatda qora va oq) imkonini beradi. Ikkita bit yordamida 4 rangni ( $2^2 = 4$ ), uchta bit yordamida 8 rangni ( $2^3 = 8$ ), to'rtta bit yordamida 16 ( $2^4 = 16$ ) kodlash mumkin va hokazo.

Odatda, rang o'lchamlari maxsus rang modellari yordamida tavsiflanadi. Kompyuter texnologiyasida RGB modeli qo'llaniladi, rang chuqurligining quyidagi ancha keng tarqalgan rejimlarda ko'rsatilishi mumkin: 8bit (256 ranglar), 16bit (65536 ranglar) va 24bit (16777216 ranglar). Turli fikrlarga ko'ra, inson ko'zi 5 dan 10 milliongacha rang tuslarini qabul qilish mumkin.

### Siqish standartlari

Sof siqilmagan raqamli tovushning bir minuti kompyuterning qattiq diskda taxminan 10 Mbayt joyni egallaydi. Shu sababli asosan ko'pgina musiqali fayllar joyni tejash maqsadida siqilgan ko'rinishda saqlanadi. Siqilmagan videoning bir minuti qancha joy egallashi mumkin? Masalan, 720x576 pikselli o'lchamdagi va 16-bitli rang chuqurligiga ega bo'lgan, sekundiga 30 kadrli chastotadagi 60 sekundli rolikni joylashtirish uchun taxminan bir yarim gigabayt bo'sh disk maydoni talab etiladi. Va bu ovoz yo'laklarini hisobga olmaganda. Ushbu raqamlardan keyin, nima uchun raqamli video bizning kompyuterlarimizda faqat siqilgan ko'rinishda saqlanishini tushuntirishning hojati bo'lmasa kerak.

Video tasvirni siqishning bir necha o'nlab mashhur formatlari mavjud bo'lib, tegishli ravishda turli natijalarni beruvchi har xil siqish algoritmlaridan foydalanadi.

**DV (Digital Video)** – video oqimlar uchun eng dastlabki siqish algoritmlaridan biri hisoblanadi. Uni ishlab chiqilishi va rivojlanishi video uskunalari sohasidagi yirik ishlab chiqaruvchilar (Sony, JVC, Panasonic, Philips va Hitachi) hisoblangan, bir necha kompaniyalar bilan hamkorlikda 1993 yildan boshlangan. DV formati ma'lumotlarni siqishning yuqori bo'lmagan darajasini beradi (5:1) va chiquvchi videofayl yetarlicha katta o'lchamga ega bo'lishi hisobiga yuqori bitreytlar bilan xarakterlanadi. Demak, bir daqiqa DV-video 200 Mb (1 soat – 12 Gb) atrofidagi joyni axborotlarni raqamli tashuvchilarda egallaydi.

Bu format ko'pincha maishiy raqamli kameralar va professional kameralar yordamida video olganda siqish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga siqishning katta bo'lmagan koeffitsienti sababli suratga olib bo'lingan materiallar juda yuqori sifatga ega bo'ladi, real vaqtda bo'lib o'tadigan siqish jarayonining o'zi esa kuchli texnik qismlarni talab qilmaydi.

Haqiqatan ham, videoni uydagi kompyuterda va ayniqsa optik disklarda DV-formati saqlash shunchaki noqulay, juda ham ko'p joy egallaydi. Shu sababli, mutaxassislar raqamli filmlar hajmini yana bir necha barobar qisqartirish mumkin bo'lgan siqishning qo'shimcha algoritmlari haqida o'ylashlariga to'g'ri keldi.

**MPEG (Moving Picture Experts Group)** – 1988 yilda ISO tashkiloti tomonidan shakllantirilgan, bir xil nomdagi mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va standartlashtirilgan, raqamli axborotlarni siqish standartlarining butun bir oilasi.

Ularning ijodlaridagi birinchi natijalar video va audio siqishlar MPEG-1 uchun dastlabki standart edi. 1993 yilda JVC va Philips kompaniyalari ishtirokida uning Video CD (VCD) spetsifikatsiyasi ishlab chiqildi va bu ko'pgina



foydalanuvchilarga ma'lum. Nomlanishidan ko'rinib turibdiki, VCD oddiy kompakt disklarda ovoz bilan siqilgan videoni saqlash uchun format hisoblanadi.

Kodlashtirish uchun MPEG-1 algoritmlaridan foydalanish, PAL uchun kadr o'lchami 352x288 nuqtali yoki NTSC uchun 352x240 nuqtali bo'lgan sekundiga 1,5 Mbitgacha kenglikdagi video oqimni olish imkonini beradi. Shunda odatdagi CD diskda VHS sifatidagi ovoz bilan 74 minutli videoni sig'irish mumkin (odatdagi videomagnitafon singari).

1995 yilda eng ommabop MPEG-2 standarti yuzaga keldiki, natijada raqamli video disk DVD, shuningdek kabel va sun'iy yo'ldosh televideniyalari signallarini uzatish keng tarqaldi. Bunda tasvir sifati, o'tmishdoshlariga nisbatan ancha yuqori bo'ladi: sekundiga 25 kadrlarda, PAL tizimi uchun o'lcham 720x576 nuqtani, 30 kadr/sekunda NTSC tizimi uchun – 720x480 nuqtani tashkil etadi. Shunday ekan, oqimning o'rtacha maksimal kengligi 9,8 Mbit/s.ga teng, bu esa Video CD ga nisbatan deyarli 7 baravar ko'pdir. MPEG-2 standartining yana bir afzalligi beshkanalli audio yo'lakni (Dolby Digital 5.1 va DTS) saqlash imkoniyati hisoblanadi.

Ikki qatlamli DVD diskning (DVD-9) maksimal sig'imi 8,5 Gbaytni tashkil etadi, unda uch soatgacha bo'lgan mukammal sifatli videoni yozish mumkin. Agar bir necha filmlar bilan DVD taklif etilsa, unda bilingki, sizni juda past o'lchamli va bitreytli Video CD darajasida quyi tezlikdagi surat kutmoqda.

MPEG-2 bilan bir qatorda, taxminan bir vaqtning o'zida, televideniya audio va video oqimlarni 20 dan 40 Mbit/s.gacha ma'lumotlar uzatish tezligi bilan yuqori aniqlikda kodlash uchun mo'ljallangan, yangi MPEG-3 standarti rivojlana boshladi. Biroq tez orada bu vazifalar uchun MPEG-2 standartining takomillashtirishgan versiyalaridan foydalanish mumkinligi aniqlandi, shundan so'ng MPEG-3 standartini yanada rivojlantirish to'htatildi va bugungi kunda ushbu standartdan foydalanilmaydi.

Aksariyat foydalanuvchilar «MPEG-3» atamasini ko'p hollarda mashhur MR3 ovozni siqish texnologiyasi bilan bog'lashishini qayd etish lozim. Lekin bu tub jihatdan noto'g'ri, chunki uning to'g'ri nomlanishi – MPEG-1 Audio Layer 3.

Nihoyat, 1998 yilda video siqish formatlarining yangi oilasi–MPEG-4 yaratildi. Bu past tezlikdagi oqimda, tasvir sifatini yaxshilash maqsadida ishlab chiqildi. Oldingi MPEG-2 standartida yuqori bitreyt hisobga olingan bo'lsada, ushbu vazifalarni bajara olmas edi, shuning uchun siqish algoritmlarini jiddiy tahrirlashga to'g'ri keldi. Tobora takomillashib borayotgan 1920x1080 (720r) dan 1280x720 (1080i yoki 1080r) gacha o'lchamli yuqori aniqlikdagi videoni (HD) saqlash uchun mos kelmay qoldi.

Bugungi kunga qadar MPEG-4multimedia kontentlarni siqishning asosiy

standarti hisoblanadi, vaholangki DVD dan nusxa ko‘chirish allaqachon boshlangan bo‘lsa ham, deyarli barcha zamonaviy video va foto kameralar HD-sifatida suratga oladi. Shunday qilib, bunday qurilmalar bilan videoni kompyuterga saqlash uchun har qanday holatda ham MPEG-4oilasidagi kodeklarni yaxshi bilish kerak bo‘ladi.

### **Siqish nisbatlari**

Video ma’lumotlarni raqamli audio video tashuvchilarga yozganda ma’lumotni siqib yozishimiz foydali. Siqilmagan videoni siqish nisbati 1:1 Siqish nisbati 1.6:1 dan 10:1 gacha bo‘ladi. Video siqish nisbati 10:1 degani orginal video 10 foizga siqilgan.

### **Bitreyt(video oqim kengligi)**

Vaqtning bir sekundiga video axborotlarning qayta ishlanadigan bitlari sonini ko‘rsatadi. Boshqa so‘z bilan aytganda – bu sekundiga megabitlarda (Mbit/s) o‘lchanadigan video oqim tezligi hisoblanadi. U qancha yuqori bo‘lsa, sifat shuncha yaxshi bo‘ladi. Misol uchun, DVD-video standart uchun oqim kengligi 5 Mbit/s atrofida, yuqori aniqlikdagi HDTV-televidenie formati uchun 25 Mbit/s.ni tashkil etadi. Bitreytning eng ko‘p qiymati Internet orqali uzatiladigan video sifatini baholash uchun ishlatiladi.

### **Kodeklar**

Videoni siqish uchun har xil standartlardan foydalanish mumkin. Ammo bunda, ma’lumotlarni o‘zgartirish uchun ma’lum bir algoritmi tanlab olib, videoni butunlay boshqa vositalarni yoki dasturiy ta’minot yordamida siqish mumkin, bu esa mutlaqo xilma-xil natijalar chiqishin ta’minlaydi. Tarmoqdan yuklab olingan HD-formatli videorolik yoki diskdan ko‘chirilgan Blu-Ray filmning mobil telefonga yozilgan video sifati va xususiyatlari qanchalik darajada farq qilishi mumkinligiga e’tibor bering. Bittasida suratni yaxshi holatda qoldirish, ikkinchisida ovozda kamchilik, uchinchisida teskarisi – sifat etaloni. Ularning barchasi bitta MPEG-4 standartidan foydalanib kodlashtirilgan.

Ko‘p jihatdan, ushbu tafovutlarning barchasi birlamchi materiallarni siqishni amalga oshiruvchi maxsus dastur – aynan kodek bilan belgilanadi. Shundan ekan, ularning har biri sifat va kodlash tezligiga ta’sir o‘tkazadigan o‘zining algoritmidan foydalanadi.

“**Kodek**” so‘zining o‘zi ikkita “koder-dekoder” so‘zlarining qisqartmasidan olingan. Bu shuni anglatadiki, kodek nafaqat siqish (koder), balki ko‘rish(dekoder) modulini ham o‘z ichiga olishi kerak. Ikkinchisi odatda bepul va K-Lite Codec

Pack yoki Windows 7 Kodek Pack kabi mashhur kodeklar to'plamiga kiradi. Bir necha istisnolar mavjud bo'lsa-da, lekin eng yaxshi va tezkor kodeklar-kodlashtirgichlar odatda pulli bo'ladi.

Barcha turdagi kodeklarni hisobga olib, ushbu mavzu doirasida faqatgina eng keng tarqalgan ba'zi kodeklarni ko'rib chiqamiz.

**MPEG-4 Part 2 ASP** – 1999 yilda paydo bo'lgan birinchi algoritmlarni biri. Uning asosida qurilgan kodeklar, chiquvchi materiallarning juda past sifatini ta'minlaydi, bu ajablanarli emas albatta. Axir shu vaqtda hech qanday yuksak aniqlikdagi video mavjud emas edi. Ammo apparat resurslariga bo'lgan talabning pastligi va ishning yuqori tezligi qisman bu nuqsonni bartaraf etardi. Aynan shuning uchun bugungi kunda, turli mobil qurilmalar va kompakt mediapleyrlar, shuningdek tarmoqda joylashgan roliklar uchun videoni kodlashda ushbu algoritmgaga ehtiyoj katta.

Ushbu algoritmlar asosiga tayangan kodeklarning eng taniqli vakillaridan biri, ko'pgina foydalanuvchilarga tanish bo'lgan tijoriy DivX va uning bepul alternativasi XviD hisoblanadi.

**MPEG-4 AVC yoki H.264** – eng so'nggi va ommabop algoritmlardan biri bo'lib, past o'lcham bilan videoni siqishda bo'lgani singari, xuddi shunday HD tarkib uchun samarali ishlatiladi. O'z o'rnida aytish joizki, Blu-Ray disklaridagi yuqori sifatli filmlarning aksariyati aynan ushbu kodek bilan kodlanadi. Shuningdek u ko'pincha bitli HD-video kameralarda (AVCHD) ishlatiladi.

Oldingi holatda bo'lgani kabi, kodeklarning ushbu oilasida bepul o'zgartirish, masalan x.264 va xuddi shuningdek mashhur video tahrirlovchilar (Adobe Premier, Pinnacle Studio va boshqalar) tarkibiga kiruvchi tijoriy variantlari ham mavjud. VC-1– Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2006 yilda standartlashtirilgan kodek. Uning asosida shaxsiy videosiqish formati WMV (Windows Media Video) va kodlash tizimi WMV 9 ishlaydi. VC-1 ning dastlabgi vazifasi X-Box pristavkalari uchun o'yinli videoni kodlashtirish bo'lgan. Bu kodek Blu-Ray formati uchun quvvatlanadigan standart hisoblanadi. Bugungi kunda video bozorida allaqachon amalda bo'lib, H.264 bilan faol raqobatlashib kelmoqda.

### Nazorat savollari

1. HD formatini nima?
2. Sifatli video yaratish uchun nimaga e'tibor berish kerak?
3. 720x1080?
4. 24p?
5. Television standartlarni bir-biridan farqi nima?

6. Digital cinema?
7. Audio treklar nima?
8. Video siqish standartlari keltiring.
9. Video nima bu?
10. Tasvir o'lchamlari nima?
11. Stereo audio bilan mono audioni farqi.
12. Video kodeklar nima?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "The Digital Filmmaking Handbook Fourth Editioni, 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA in 2012, pages – 555.
2. Video production Fifth edition Jim Owens Gerald Millerson 225 Wyman Street, MA 02451, USA in 2013, pages – 385
3. [https://www.google.ru/?gws\\_rd=ssl#newwindow](https://www.google.ru/?gws_rd=ssl#newwindow)
4. <http://www.mediacollege.com/>
5. <https://helpx.adobe.com/after-effects/how-to/aftereffects-understanding-animation-cc.html>

## 2- Mavzu: Raqamli audio-video qurilmalari va dasturlari.

### Reja:

1. Kameralar va ularni baholash.
2. Zamonaviy audio qurilmalar va ularndan foydalanish.
3. Film yaratish texnologiyasi va ularda foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar.

**Tayanch iboralar:** *Kamera sensori, Chrominance, To'liq kadr, Oq yo'rug'lik, Linzalar, Multi-Cam, Mikrofonlar, Miksherlar, Chrominance, Green Screen, Motion Capture, Adobe After Effect, Adobe Audition, Adobe Premier Pro.*

### 2.1 Kameralar va ularni baholash

Biz film olganimizda birinchi navbatda tasvirning sifatiga e'tibor berishimiz kerak. Tasvirning sifati kameraning linzalariga va tasvir sensoriga bo'g'liq.

#### Kamera Sensorlari

Oldin video kameralar tasvirlarni olish uchun vakuum trubkalari ishlatilgan. Bugungi kunda kameralarda maxsus tasvir sensorlari foydalaniladi ular CCDs (charge-coupled devices) yoki CMSO (complementary metal-oxide semiconductors) deb nomlanadi. Ularning avlodi tasvirni ushlab olish uchun bir yoki uch trubkalikka asoslangan. Kameraning chipi yakka sensordan to'liq rangli tasvirni ushlab olish yoki uchta ajratilgan sensordan foydalaniladi. Rangli tasvirda yig'ilgan uchta qizil, yashil, ko'k ma'lumotlarini ushlab olish uchun uch trubkadan foydalanilgan.

Tasvir sensori oddiy kompyuter chipiga o'xshaydi. Ammo yorug'lik sezgirlik oynasi juda yuqori. Tasvir oynasi panjara va yupqa panjaralarga. Sensorning nazorat davri panjaradagi har bir yacheykadagi yorug'likning qiymati aniqlay oladi va usha ma'lumotlardan tasvirni qurish uchun kameradan foydalaniladi.



Yakka chipli kameralar sensorida yacheykalarining klastirini ajratish uchun qizil, yashil, ko'k filterlar bor.


#### 2.1. rasm. Olympus CCD tasvir sensori

Yorug'lik linzalar orqali o'tadi va bu filterlar rangli tasvirni yozishi uchun cameraga ruxsat beradi.

Uch chipli kameralarda esa prizmanlarning ketmaketligi kiruvchi yorug'likni uchta ranglar komponentiga


ajratadi ya'ni qizil, yashil, ko'k rangga ajratadi va bu komponentlarning har biri sensorning ustiga yo'naltiriladi. Bu bir sensorlik kameradan yaxshiroq.

Tasvir ma'lumotlari sensorida yig'ilib kompyuterga uzatiladi va raqamli media omboriga yoziladi.



**2.2 rasm.** Yakka chiplik kamera, yorug'lik linza orqali sensorga yo'naltirilgan. Ranglarni hisoblash uchun qizil, yashil, ko'k filterlar sensorning ustki qismida joylashtirilgan. Natijaviy ma'lumot kameraning

protessorga jo'natiladi (eslatma, inson ko'zi yashilga nisbatan yuqori sezuchanligini moslashtirish uchun yashil yacheykalar uzoqroq joylashtiriladi)




**2.3. rasm.** Uch chipli kamera, yorug'lik linza orqali prizmalar ketmaketligiga jo'natilgan va yorug'lik bo'llangan uchta ranga qizil, yashil, ko'k. Har bir komponent o'zining sensoriga jo'natilgan.


### Kamera sensorni baholash

Agar siz kamerani baholamoqchi bo'lsangiz birinchi uning navbatda rangni qayta ishlashiga qaraysiz. Agar siz tasvirni aniqligiga e'tibor bersangiz camera olgan surat aniq tasvirni rangini beryaptimi yoki yo'q shunga etibor berasiz. Video shovqinlarga ham e'tibor berishingiz muhim. Shovqinning ikki ko'rinishi bor: luminance shovqin, sizning tasviringizga monoxromatik dog'li naqsh paydo

bo'ladi.



Chrominance shovqin, qizil, yashil yoki magneta oxshagan dog'lar paydo bo'ladi.



**2.4. rasm.** Yorqin rangli piksellardan tashkil topgan chrominance shovqin

Xususan siz agar ideal tasvir olmoqchi bo'lsangiz sizning yorug'ligingiz past

bo'lsa buning iloji yo'q. Luminans shovqinni postpradakshinda olib tashlash mumkin lekin chrominans shovqinni olib tashlash juda qiyin. Siz shuningdek kameraning turli xil yorug'likka sezuvchanligini tekshirish kerak.

Bugungi kunda tasvir sensorinig o'lchammi bo'yicha gold standartlar 35mmlik fotografiyaga asoslanadi. Katta tasvir sensorlari yaxshiroq tasvirlar hosil qiladi. Ularda yuqori dinamik palasa va pastroq shovqin tendensiyasi bor.



2.5. rasm. To'liq 35mm plyonkali tasvir

### Oq yorug'lik balansi

Aniq rangni tasvirga olish uchun qaysi rang sizning tasviringizda oq ekanligini. Kamerani oq ranga moslashtirgandan so'ng, u boshqa ranglarni ham yanada aniqroq ko'rsatadi. Ko'p kamera avtomatik tarzda oq balanslarini o'zlari to'g'rilaydi. Qachonki siz kamerani baholaganingizda oq kameraga ham e'tibor bering.

### Linzalar

Lentali kameralarda linzalarning vazifasi yorug'likni lentaning qisimlariga yozish vazifasini bajaradi. Raqamli kamerada esa kameraning sensoriga yorug'likni yo'naltirish uchun ishlaydi. Tasmali kameralarda linzaning sifati sifati yaxshi va yomon tasvirlarni anglatadi. Raqamli kameralarda esa sifatli rangli qirrali tasvir va xira rangli yumshoq tasvir orasidagi farqni ko'rsatadi.

Ko'p raqamli kameralarda zum (zoom) linzalar o'rnatilgan bo'ladi. DSLR kameraning linzalarni o'zgartirib bo'lmaydi. Professional kameralarda linzalarni o'zgartira olasiz ya'ni ular keng burchakli va telefoto xususiyatli bo'ladin.





**2.6. rasm.** Panasonic AG-AF100

### **Linzaning xususiyatlari**

#### **1. O'zgaruvchan linzalar**

Raqamli kameralarda uchun ajoyib yo'nalishlardan biri o'zgaruvchan linzalar. Tasvirni suratga olish uchun qo'shimcha darajalarni beradi.

#### **2. Zoom linzalar**

Linzalar turli xil zoom linzalar va markaziy linzalar. Foydalanuvchilar har doim linzalarni yig'ishga harak qiladilar. Markaziy linzalar zoom linzalarga qaraganda o'tkir qirrali tasvirlarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ular past yorug'likli fotografiya uchun sifatli hisoblanadi. Markaziy linzalar o'z ichiga keng va normal burchakli va telefoto linzalarni o'z ichiga oladi.



**2.7. rasm.** Zeiss Prime linzalari

### **3. Cinema linzalari.**

Yuqori harakatdagi tasvir linzalari harakatsiz fotografiya lizalaridan farq qiladi. Ularning dizayni harakdagi fotografiyaga moslangan va qo'l bilan fokusini

o'zgartirish juna aniqligi yuqori.



**2.8 rasm.** Asosiy cinema linzasi

### **Multi-Cam tasvirga olish**

Jonli efirda bir necha yillardan beri bir yoki bir necha kamerada tasvirga olish rivojlanib kelmoqda. Eng kamida ikkita kamerada foydalaniladi va u rejissor tomonidan boshqariladi. Televizion studiyalar standarti uchun bu 4 kameradan iborat bo'ladi. Asosan keng yoki asosiy va uchta harakatlanuvchi kameralardan iborat. Texnik direktor boshqaruv xonasida turib kameralarni boshqaradi. Bugungi kunda uyinli va munozarali dasturlar shu tartibda olinadi. Multi-cam tasvirga olishning birinchi qoidasi kameralar sinxronni ishlashi kerak. Bu sinxronni postpradakshn vaqtida amalga oshiriladi.

Multi-cam tasvirga olishning ikkinchi qoidasi kameralar mosligi. Quyida keltirilgan to'yxatda nimalar aynan mos kelishi ko'rsatilgan.

- Kameraning modeli/turi
- Linzalar va ularning uzoqligi
- Oq balans
- Tasvirga olish tezligi
- Kadrlar tezligi
- Kadrlarning o'lchami (misol uchun 1080,720 va boshqalar)
- Kodek (agar sizning kamerangiz bir yoki bir necha kodekni taqdim qilsa)
- Kamerangiz sozlamasidagi boshqa bir tasvir sifatini oshiruvchi funksiyalar
- Kamera filtrlarini sozlash




**A camera**



**B camera**



**C camera**



**Camera Diagram**

**2.9. rasm.** Kadrlarning uch ko‘rinishida olinishi

2.2. Zamonaviy audio qurilmalar va ularndan foydalanish

**Mikrofonlar**

Sizing video kamerangizda mikrofon bo‘lsa ham siz uni kinolar va hujjatli filmlarda foydalana olmaysiz. Kamerani mikrofonni ovozni barcha yo‘nalishda sifatsiz yozib oladi. Sababi mikrofon kamerada joylashgan bo‘ladi agar sezgirligini oshirsak qo‘lning harakati va motorini ovozini yozib olishi mumkin.



**2.10. rasm.** Panasonic HVX200 turidagi yo‘nalishli mikrofoniga ega bo‘lgan yuqori sifatli kamkoder

Turli vaziyatlarda ovoz yozish uchun mikrofonlarning dizayni turlicha qilingan. Shuning uchun mikrofonlarni tanlayotganingizda siz olayotgan kadrning xarakteristikasiga mikrofonni moslashtirish kerak.



**2.11. rasm.**  
The Fostex FR-2  
ovoz yozish  
qurilmasi

Mikrofon dransducerning bir turi bo‘lib xizmat qiladi. U bir energiyani boshqa energiyaga aylantiradigan qurulma hisoblanadi. Mikrofon vazifasi akustik energiyani elektr energiyaga aylantirib beradi. Mikrofonlar yo‘nalishi xususiyati uchga bo‘linadi.

- Bir tomonlama yo‘nalgan
- Ikki tomonlama yo‘nalgan
- Ko‘p tomonlama yo‘nalgan


### **Har tomonlama yo‘nalgan**

Uning nomidan kelib chiqadiki har yo‘nalishdan audioni qabul qilib ko‘taradi. Lekin muammoli tomoni har agar ochiq maydonda bo‘lsa har tomonda ovozni oladi.

### **Bir tomonlama yo‘nalgan**

Siz kutaningizdek u bir yo‘nalishdagi audioni kuchaytiradi. Chunki siz muayyam bir ob‘yektga qarata olasiz. Bu hujjatli filmlarda yaxshi chinki ma‘lum


bir shaxsga qaratiladi. Bundan tashqari yoʻnalishga ega boʻlgan mikrofonlar har tomonlama yoʻnalgan mikrofondan koʻra uzoqroq masofada joylashtiriladi shuning bilan bir qatorda mikrofonni oʻbyektga yaqin masofada joylashtirish qiyin. kardiod mikrofonlar mikrofonning old qismidan ovoz kelishiga sezgirligi kuchli. Xsusan kardiod mikrofon obyektidan 7-8 fut uzoqlikda joylashadi. Superkardioid mikrofon obyektidan 6-15 fut uzoqlikda joylashganida yaxshi natija beradi.



**2.12 rasm.** Bir yoʻnalshli mikrofon uchun kardiod chizmasi va superkardioid mikrofon.

### Giperkardioid

Agar atrof muhitda shovqin koʻp boʻlsa obyektidan yoki yoʻnalishdan tovushni izolatsiya qilish. Atrof –muhitdagi shovqinlarni olib tashlash uchun bir tomonlama mikrofon bir noodatiy. Giperkardioid mikrofonlarda foydalanish uchun mahoratli ovoz operatori boʻlish kerak.



**2.13. rasm.** Superkardioid mikrofonlarning

**2.14. rasm.** Yuqori yoʻnalganlikka ega boʻlgan

mikrofon diogrammasi

Va nihoyat, parabolik mikrofonlar kuchli yoʻnalgan mikrofonlardan biri hisoblanadi, ular katta parabolaga oid qurilmadan foydalaniladi. Tovushni yigadi va aniq bir yoʻnalishga uzatadi. Parabolic mikrafonlarr 200futdan ham sezgir va ular koʻp funksiya tasvirga olishda foydali emas. Shunday boʻlsada qiyin tasvirga olish vaziyatlarida yaʼni obyekt nihoyatda uzoq boʻlgan vaziyatlarda foydali.

### 2.3. Film yaratish texnologiyasi va ularda foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar

Green Screen effekti orqali tasvirga olish.

Muhim jarayonlardan biri bu kompozitsiya ichida yaʼni bir yoki bir nechta kadrda bitta kadr hosil qilish orqali maxsus effektlarni yaratish. Kompozitsiya uchun kalit nuqtalar yashil yoki koʻk ekranda olindi. Koʻk va yashil ekran qurilmalari koʻk va yashil sohada oʻrnatiladi. Koʻk va yashil fonlar asosan orqa fonda ishlatiladi va soʻng montaj vaqtida olib tashlanib boshqa bir kadr yoki tasvir joylashtiriladi. Koʻk, yashil fonda olganingizda kadirning yorugʻligiga eʼtibor bering.



2.14. rasm. Green screen effekti qoʻllanilgan kadr

#### Motion capture effektidan foydalanish.

Motion capture effekti bu obyekt yoki insonning harakatini yozib olish. U xarbiy, kino, sport sohalarida keng foydalaniladi. Film va kompyuter oʻyinlari sohasida rivlontirilgan. Aktiyorning harakatlarini yozib oladi va bu maʼlumotlarni raqamli shakilda kompyuterga 2yoki 3 oʻlchamli obyekt modeliga koʻchiradi.



**2.15.rasm.** Motion capture qurilmasidan “Avatar” filmidan foydalanilgan

3D texnologiyasining tarixi 19 asr boshlariga borib taqaladi. Ba'zi qadamlar 3o'chamli texnologiya 1838 yilda Charles Wheatstone janoblari tomonidan stereoskop kashf etilgan paytni ko'rsatadi. Stereoskop oyna ishlatgan holda o'ng va chap ko'zlarga turli hil tasvirlarni taqdim etadi. Bu jarayon binokular parallax uchun ishlatiladi. Ishlash usuli hozirgi texnologiyaning o'zginasi. yuz va bir necha o'n yillar davomida ishqibozlar 3o'lchamli kumush xolid rasmlar 3o'lcamli kinolarni, stereoskop kashfiyotidan so'ng qiziqish bilan tomosha qilishgan, va 3o'lchamli ekran texnologiyasi 21 asrda jadal suratlarda rivojlanib ketdi. Hozirgi kunlarda 3o'lcham haqida ko'p eshitamiz. 3D tijorat shaxsiy kompyuter ekranlari va mobil telefonlar ishlab chiqarildi. BS kanallar 3o'lchamli dasturlarni namoyish etishni boshlashdi. yangi HDMI standart, HDMI 1.4 3D ko'rsatuvlarni (eshittirishlarni) qo'llab quvvatlash uchun ishlab chiqarildi. Elektron kompaniyalar o'zlarining 3D televizorlari va 3D yozuvlarni ishlab chiqqanlari haqida e'lon qilishdi. Fujifilm tomonidan "FINEPIX REAL 3D tizimi" ni rivojlantirish boshlangan. 2008 yilda Photokino da texnologiya haqida e'lon qildi. 2009 yil yozida bu kompaniya yangi tizim ishlab chiqdi. Uning diagrammasi 1- rasmda ko'rsatilgan. FUJIFILM 3 o'lchamli raqamli tasvirlar tizimi "FINEPIX REAL 3D tizimi"ni rivojlantirdi. Tizim 3D raqamli kamera "FINEPIX REAL 3D W1", 3D ko'rinishi "FINEPIX REAL 3D V1"va 3D chop etish xizmati kabilarni o'z ichiga oladi. FINEPIX REAL 3D W1, 2 ta 10 megapikselli CCD, ikkita 3x optik zum (zoom) linzalar, yangi rivojlangan 2D/3DLCD monitor (2.8 dyum) va yangi rivojlangan 3D protsessor "Real Photo processor 3D" kabilarga ega. Kamera 3D tasvirlarni ham kinolarni ham bor yo'g'i suratga olish tugmachasini bosish bilan suratga oladi. va sizga hechqanday maxsus ko'zoynaklarsiz LCD monitoringizda 3o'lchamlitasvirlarni ko'rish imkonini beradi. Bu kamera orqali har bir inson yuqori sifatdagi 3o'lchamli tasvir yoki filmlarni ko'rishi mumkin. Bu 3o'lchali

tizim 3 qismdan tashkil topgan: 3o'lchamli raqali W1 kamera, 3o'lchamli V1 taqdim etgich va 3o'lchamli chop etish tizimi. Tizim foydalanuvchiga rasmga olish, uni namoyish etish va uni qog'ozda ko'rish imkonini beradi. U foydalanuvchiga hech qanday mahsus ko'nikmalarsiz 3o'lchamli ko'rinishni ko'rishning imkonini beradi. U ishlab chiqilgandan beri tizim ijobiy qabul qilindi. Ushbu maqola FINEPIX REAL 3d W1, 3o'lchamli kamerani tasvirlab beradi va hammasini bittada ko'rsatadi.



**3.1. rasm. FINEPIX REAL 3D tizimi**


### **FINEPIX REAL 3D tizimi**

Ushbu bo'linma (1) tashqi ko'rinishni, (2) asosiy xususiyatlarni, (3) blok diagrammalarni va (4) W1 kamerasing xususiyatlarini jamlaydi.

#### **Tashqi Ko'rinishi**

Kameraning old qismiga 77 mmli ikki (chap va o'ng) linzasi mavjud. Uning tagida suriluvchi to'siq linzalarni qoplash va yoqib-o'chirish amallarini bajaradi. Kameraning orqa tomonida stereoskopik LCD ko'z oynasi, boshqaruv tugmalari markazida joylashgan. 3D ga tegishli tugmalar, 3D/2D tugmalari va surish nazorati tugmalari barchasi chap tomonda joylashgan.






3.2. rasm. FINEPIX REAL 3D W1 ning tashqi ko‘rinish tizimi

### Blok Diagrammasi

Tasvirga olish tizimi ikkita asosiy linzalar birlashmasida, ya’ni Fujinon 3x optik kattalashtirish linzasi hamda, 10 M-piksel CCD dan iborat. Xabar protsessorining tasvir ma’lumotlarini chap va o‘ng linzalar birligidan qabul qiluvchi va ikki o‘lchamli tasvirni 3D tasvirga keltiruvchi Real Tasvir 3D Dvigateli mavjud. Display 2D/3D LCD yorug‘lik boshqaruvi bilan jihozlangan. Chap va o‘ng ko‘zga turlicha tasvirlarni ko‘rsatish chuqurlik hissini hosil qiladi.



3.3. rasm. FINEPIX REAL 3D W1 ning asosiy texnologiyalari

### 2.4 FINEPIX REAL 3D W1 ning xususiyatlari


W1 ning ikki asosiy xususiyati mavjud. Birinchisi bu tasvirlarni osongina 3D o'lchamda tasvirga tushurishi. Bu maxsus qobiliyatni talab qilmaydi. Keyingisi esa 3D tasvirlarni kameradan uzoq yoki yaqinligiga, ya'ni ikki linza bilan tasvirga olish murakkabligiga qaramay tasvirga olish mahorati hisoblanadi.

**(1) 3D tasvirga tushirish va ko'rish oson.**

Avvallari 3D tasvirga olish va uni kuzatish judayam ko'p vositalarni va yuqori darajadagi uskunalarni talab qilardi. Har bir odam 3D tasvirlardan zavqlanadi. W1 maxsus vosita yoki dasturlarni talab qilmaydi. Oddiygina sur'atga olish tugmasini bosish orqali kamera avtomatik ravishda o'zini optik holatga o'tkazadi va foydalanuvchiga istagancha 3D tasvir olish imkonini yaratadi.

**(2) Makro va manzarani 3D o'lchamda tasvirga olish imkoniyati.**


Ikki tomonli tasvir ishlatilganda makro sur'atga tushirishda stereoskopiyadan foydalanib bo'lmaydi, negaki, surish tizimi judayam katta va manzara uchun surish tizimi judayam kichik kichik hisoblanadi. Bunday tasvirlarni sur'atga olishda W1 ning 3D rejimi mavjud: yakka 3D tasvirga olish va oraliq 3D tasvirga olish rejimlari. Ushbu usullar foydalanuvchiga stereo manbani o'zgartirish va 3D tasvirga olish imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.



**3.4. rasm (Makro sur'atga olish) Yakka Tartibda 3D Tasvirga Olish.**


Garchi W1bozorga qo'yishda ko'p muammolari bo'lgan bo'lsa ham, bizda quyidagi katta muammolar mavjud. Bu qism biz bu muammolarga qanday yechim topganimiz haqida.

- 1) Binocular parallax boshqaruv (parallax dizayni va optik o'q aralashmalari)
- 2) o'ng va chap tasvirlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash
- 3) 3o'lchamli monitor oynalarida himoyalangan ko'zlarni rivojlantirish inson ongi chuqur hissiyotlarni yaratishga asoslangan binocular parallax, harakat parallax, binocular yaqinlik va kabi ma'lumotlarni idrok qiladi. (6-shakl).



**3.5. rasm.** Chuqirlikni qabul qilish faktorlari

Ma'lumotlar ichida W1, 3o'chamli rasmni namoyish etish uchun, binokulyar parallax (o'ng va chap ko'zlar uchun 2o'lchamli tasvirlarni namoyish etish bilan stereoskopik effektlarni taqdim etadi) ni ishlatadi. Aniqroq aytganda, obyekt turli burchaklarda o'ng va chap linzalar yordamida ko'rinadi. Bu tasvirlar o'ng va chap ko'zlar uchun 3o'lchamni ko'rsatish uchun alohida qo'yiladi. Parallax darajalariga ko'ra obyekt qanchalik o'zgarishi ko'rinishi. 7-shaklda ko'rsatilgan.



**3.6.rasm.** chuqirlikni qabul qilish yo'li

O'ng va chap ko'zlar orasida parallax bo'lmasa 3 o'lchamli ekranda ko'rinadi. Obyekt o'ngda ko'ringanida chap ko'z tasvir o'ng ko'z tasviri bilan solishtiriladi. 3 o'lchamli tasvir ekran yuzasida ko'rinadi. va aksincha obyekt chapda ko'rinsa, chap ko'z tasviri o'ng ko'z tasviri bilan solishtiriladi, 3o'lchamli obyekt ekran

yuzasining orqasida ko‘rinadi. Kattaroq parallax ko‘proq chuqurlik yoki bo‘rtlikda bo‘ladi. lekin uning chegarasi bor. Agar parallax judayam katta yoki judayam kichik bo‘lsa, bu tasvirlarning ikkisi ham bitta 3o‘lchamli tasvirda bo‘la olmaydi. 8-shakl. Bu ko‘pincha obyektlar parallaxlarida juda katta farq bo‘lganda sodir boladi.

Maksimal 3o‘lchamli effekt uchun biz parallax ni oshirishimiz kerak. ko‘z uchun qulay bo‘lishi kerak bo‘lgan tasvirlar uchun bizga judayam katta parallax kerak emas. Parallax ni boshqarish 3o‘lchamli effektlarni tenglashtirishda muhim. Ammo parallaxni aniqlab beruvchi bir qancha faktorlar bor. 9-shakl.




Fig. 9 Elements of binocular parallax.

### Optik o‘qlarni aralashtirish

3o‘lchamli ko‘rinishni taqdim etishning qulayligi binocular parallaxni ishlatish, tasvirga olish tizimidagi o‘ng va chap optik o‘qlari sozlangan bo‘lishi kerak va statik holda turishi kerak.

Bu muammoni yechish uchun W1 ishchilari (1) yuqori aniqlikdagi Fujinon linzalarini, (2) alyumin metal kasting kadr statsionar linzalar optik o‘qlarini va yuqori aniqlikdagi mukammal mahsulot texnologiyasini ishlab chiqargan.


### 3.2. Ikki-Linzalar Orqali Tasvirga Olish

O‘ng va chap tasvirlar orasidagi turli vertikal surish, kechikish, ranglar farqi va yorqinligi xossalari asosiy omillardan sanaladi. W1 yangi protsessorni qamraydi, ya‘ni “Real Tasvir 3D Dvigateli”ni. Protessor xossalar farqini amalga oshiradi. O‘ng va chap tasvirlar orasidagi kechikish 3D effektlarni buzilishiga va doim 3D tasvirlanishni yo‘q bo‘lishiga olib keladi. Bu muammo to‘liq sinxronlashtirish orqali mikrosekundga tegishli o‘ng va chap sur‘atga olishda kino va tasvirlarga birlik berish orqali yechildi. Natijada bu haqqoniy tasvirlarni,


kinotasvirlarni bir chaqnash bilan qulay 3D ko‘rinishda sur‘atga olish imkonini berdi.

### 3.3 3D Ko‘z Displayi

Raqamli kameraning tabiati tufayli, ko‘z ilg‘ay oladigan 3D LCD ning rivojlanishi muhim deb topildi. Shunday qilib biz LCDning yorug‘lik yo‘nalishli boshqarish tizimini rivojlantirdik. Ushbu tizimning chap va o‘ng ko‘z uchun ikki orqa yorug‘ligi mavjud. Ushbu tizim katta tezlikda qarama-qarshi ravishda chaqnaydi. Tasvirni chap va o‘ng ko‘z uchun sinxronlashtirish uchun ular qarama-qarshi joylashtiriladi. 2D tasvir uchun ham huddi shu amal bajariladi. Tizimning xususiyatlaridan biri bu gorizontalkenglik o‘ng va chap tasvirda 3D effektini hosil qilish uchun yo‘qotishsiz amal oshadi, vaqt taqsimlangan holda. 11-shakl va 12-shakl tajribaviy diagrammalarni ko‘rsatadi.



**11-shakl.** Yorug‘lik yo‘nalishi boshqaruv tizimining tajribaviy diagrammasi.



12-shakl. Yorug'lik yo'nalishi boshqaruv tizimining ishlash tamoyili.

### Nazorat savollari

1. Kamera sensori nima?
2. Bir chiqli kamera bilan uch chiqli kameraning farqi nima?
3. Oq yo'rug'li balansining avzalligi.
4. Kamera linzalarining vazifalari.
5. Multi-cum suratga olishning ketmaketligini tushuntirib bering?
6. Audio miksherning vazifasi nimadan iborat.
7. Mikrofonlarning bir-biridan nimasi bilan farq qiladi.
8. Green Screen effekti nima?
9. Motion capture Effekti nima?
10. 3D tasvirga olish texnologiyasi.
11. FINEPIX REAL 3D fotoaparating xususiyatlari.

### Adabiyotlar va internet resurslar

1. "The Digital Filmmaking Handbook Fourth Editioni, 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA in 2012, pages – 555.
2. Video production Fifth edition Jim Owens Gerald Millerson 225 Wyman Street, MA 02451, USA in 2013, pages – 385
3. <https://www.lhup.edu/~dsimanek/3d/stereo/3dgallery12.htm>
4. <http://www.mediacollege.com/>
5. <https://helpx.adobe.com/after-effects/how-to/aftereffects-understanding-animation-cc.html>

# IV BO`LIM

AMALIY MASHG`ULOT  
MATERIALLARI

## IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### 1 – Amaliy mashg'ulot. Audio-video montaj dasturlari.

**Ishdan maqsad:** video yaratishda kerakli bo'lgan instrumental dasturiy vositalarni o'rnatish va video yaratish yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish. Audio montaj dasturlari bilan tanishish. Audioni miksherlash va darajalarini o'lchash. Audioni kesish va keraksiz shumlardan tozalash. Ovoz uchun tahrirlash ilovasini ishlatish va foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

#### Масаланинг қўйилиши:

- Adobe Premier Pro dasturi bilan tanish;
- Adobe Premier Pro va After Effect dasturida Video o'tishlar bilan ishlash;
- Multi-cum effektidan foydalanib video yaratish;
- Green screen effektidan foydalanib klip yaratish.

#### Ishni bajarish uchun namuna

Bugungi kunda audio-video montaj dasturlardan foydalanganda e'tibor berish kerakki biz foydalaniladigan kompyuter shu dastur uchun mosmi yoki yo'q. Ko'pgina montaj dasturlarining interfeysi bir xil bo'ladi. Loyiha oynasi video kliplar va boshqa media ma'lumotlardan iborat papkalarni o'z ichiga oladi. Klip ustida sichqochamizni chap tugmasini bosish orqali video ma'lumotni kompozitsiya oynasida ko'rishimiz mumkin. Kompozitsiya oynasi ekranning chap tomonida joylashgan. Kompozitsiya oynasi sizga siz montaj qilmoqchi bo'lgan video maxsulotingizni kerakli qismini belgilash va tasvirga olish imkoniyatini beradi. Olingan kadrlarni timeline oynasiga ketma-ket joylashtirish orqali klipni xosil qilasiz. Timeline oynasi ikki qismdan tashkil topgan: audio va video qismdan tashkil topgan. Siz montaj qilganingizda aniq bir video yoki audio treknini tanlab olasiz, siz tanlagan audio va video har ikkalasi ham sizning yaratayotgan loyihangizga qo'shiladi. Masalan, video treknini tanlash orqali, siz videodagi kadrlarni kesib boshqa videoga o'zgartirishingiz mumkin lekin videoda tegishli bo'lgan audio ma'lumot o'zgarishsiz qoladi. Ko'pgina audio video muharrirlash dasturlari cheksiz audio video treklarni taqdim eta oladi. Tez o'rganish uchun zamonaviy interfeysli video montaj dasturlaridan foydalanish kerak. Lekin ehtiyot bo'ling siz oddi dasturlar bilan yuqori sifatdagi video mahsulotni yarata ololmaysiz. Lekin siz oson ishlash uchun bir nechtasini topishingiz mumkin.

Ekranning o'ng tomonida yozishni ko'rish oynasi joylashgan. Bu oynaning



vazifasi siz montaj qilayotgan timeline panelidagi video ko'rish.

Loyihalar oynasi

kompozitsiya oynasi

yo'zishni ko'rish oynasi

Binlar



Kliplar

Timeline oynasi

### 1.1. rasm. Premier Pro dastur interfeysi

#### Montaj uskunalari

Eng yaxshi montaj ilovalaridan biri bu turli yo'llar va usullar bilan montaj qilish xisoblanadi. Quyida audio video muxarrirlash ilovalarida keltirilgan montaj uskunalari keltirilgan. Agar siz montajni endi boshlagan bo'lsangiz bu keltirilgan ma'lumotlar siz uchun foydali. Agar siz montaj dasturlaridan foydalangan bo'lsangiz siz uchun bu mukammal montajor bo'lishingizga yordam beradi.

Ob'ektni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish orqali taxrirlash


Sichqoncha bilan ko'chirish orqali taxrirlashda siz sichqoncha orqali "bin"dagi klipni "timeline" oynasiga olib ko'chirasiz.

#### Uch nuqta montaji

Siz yaratgan loyihangizdagi montaj qilayotgan videoyingizda asosiy videoyingizning aniq bir kadrini topishga ruxsat beradi. boshlashini yoki tanlash yoki asosiy nuqtasi yoki tugallangan qismini tanlash orqali (bu birinchi nuqtasi), so'ng klip qayerdan boshlanadi yoki tugatiladi sizning yaratgan loyihangizda. Sizda bu loyihangizni aniq yaratishda juda qo'l keladi

### JKL muxarrirlash

Agar sizning dasturingiz JKL montaj boshqaruvini taqdim qilsa, sizning klaviaturangiz J videoni o'qitish vazifasini bajaradi. K tugmasi video tuxtatib turadi. L btugmasi oldinga o'qitadi videoni. bu oddiy struktura orqali videoyingizni tezroq kerakli kadrlarini topib tezroq montaj qilish imkonini beradi. Bu tugmalarni o'zingizga moslab o'zgartirishingiz mumkin.




1.2. rasm. Klaviaturadagi kalit harflar

### Joylashtirish va ustida yozib muxarrirlash

Siz drag and drop usulidan foydalanasizmi yoki 3 nuqta muxarrirlash usuli bo'ladimi yoki sizning joylashtirish va ustida yozib muxarrirlash modeli uchun ishlatiladi. bu ikkita funksiya orqali sizning videoyingizni oldin yaratgan video loyihasiga qo'shish uchun ishlatish mumkin. birinchi va ikkinchi videoni orasiga videoingizni qo'shish uchun oldindagi videoni yani timeline oynasidagi videoni ikkinchi video trekiga olib tashlab birzga kerakli videoga joylashtirishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda audi va videoning ikkalasi ham timeline oynasiga joylashtiriladi.

Aksincha ustidan yozish video trekning tepa qismidagi ikkinchi video trekka video ovozi bilan joylashtiriladi va kerakli audio tanlanadi.



1.3. rasm. Video kesish strukturasi

### Kesish

Agar sahnada keraksiz joy kelsa uni kesishga majbur bo'lasiz. Kesish interfeysi uchun ikkita oyna bor yani kompozitsiya oynasi va yozish oynalarinig o'rniga. Oynaning chaptomonida oxirgi kadrni ko'rishingiz mumkin va oynaning o'ng tomonida birinchi kadrni ko'rishingiz mumkin. Kesish holatida, kadirning tugashini kengaytirishingiz yoki qisqartirishingiz mumkin yoki kirishidagi kadrni kengaytirib qisqartirishingiz mumkin.

Chiqishidagi kadr

kirishidagi kadr



Muxarrirlash tanlangan

1.4. rasm. Timeline oynasi

### Kengaytirish va aylantirish, siljitish va slaid

Sizning yaratayotgan loyihangizda siz bir necha muxarrirlash turlaridan foydalanishingiz mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan 4ta yo'l loyihangizni aniq montaj qilishga yordam beradi. Sizning dasturingizga qarab bu yollardan turlicha foydalanishingiz mumkin timeline oynasida.

Kengaytirish va aylantirish ikki kadr orasidagi mavjud tahrirlashni o'zgartirish yo'llari. Kengaytirish orqali siz kengaytira yoki qisqartira olasiz chiqishidagi yoki kirishidagi kadrlarni. Aylantirish orqali siz chiqishidagi kadrni kengaytirasiz va bir vaqtning o'zida kirishidagi kadrni qisqartirasiz. Video trekdagi umumiy umumiy uzunligi o'zgarishsiz qoladi.



1.5. rasm. Uchta kadr ketmaketligi



1.6. rasm. Markaziy kadrni o'ng tomonga siljitish



1.7. rasm. Markaziy kadrni chap tomonga siljitish

### Multi-camera muxarrirlash

Agar sizning dasturingiz ko'p kamerali montaj usulini amalga oshirsa, timeline oynangizda turli-xil kameralardagi kadrlarni bir kadrlar bilan guruhlaysiz va so'ng siz xoxlagan vaqtdagi va kameradagi kadrlarni ko'rishingiz mumkin bo'ladi. Siz vaqtlarni bir- biriga moslash orqali har bir kadrda audio va videoni guruhlaysiz.

Manba klipni muharrirlash

yo'zishni ko'rish



1.8. rasm. Multi-cum effekti

## **Multi-camera muharrirlash usuli**

### **Murakkab funksiyalar**

#### **Kadrlarning muttanosibli**

Agar siz dasturingizga Kadrlarning muttanosibli Funksiyasini amalga oshirmoqchi bo'lsangiz oddiygina kursoringizni timeline oynasidagi kadingizga kursorni olib borasiz va Match Frame funksiyasini bosasiz. Sizning kompozitsiya oynangizda manba klip paydo bo'ladi.

### **Tarmoq muxarrirlashlari**

Loyihani yaratish uchun bir necha turdagi montajorlar va ishchi oynalari kerak bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bir nechamontajor ishlash mumkin va foydali tomoni dasturni mukammal darajada ishlata olmasangiz internet orqali ma'lumot olishingiz mumkin.

### **Import media**

Agar siz ma'lumotingizni montaj dasturiga yuklab olmoqchi bo'lsangiz siz oddiygina qilib ma'lumotni video saqlovchi qurilmadan nushasini ko'chirib olasiz va so'ng uni project\*import media funksiyasini bosamiz va video ma'lumotni yuklab olamiz. Agar ma'lumotni yuklab olganingizda dastur videoni o'qimasa video kodegini zamonaviysini kompyuterimizga o'rnatamiz.

### **Effektlar va sarlavhalar**

Bugungi kunda hattoki arzonroq dasturlarda ham aqilga tasir etadigan juda kuchli effektlar yaratilgan. Aniqroq etganda arzonroq dasturda ko'proq effektga ega bo'lasiz. Shunday bo'lsada barcha effektlar bir katigoriyada yotadi.

### **Transition (Video o'tishlash)**

Transition effekt bir kadrda boshqa kadrda o'tganda foydalaniladi. Video o'tishlarda keng foydalaniladigani "crass-desolve" effekti hisoblanadi. Uning vazifasi vaqlarni o'tkazishda foydalaniladi. Transition ichiga kirsangiz bir necha turdagi video o'tish effektlarini ko'rishingiz mumkin. Agar siz bundan ham ko'p effektlardan foydalanishni xoxlasangiz video effektlarni plug-in larine o'rnatasiz.

Plug-in bu dastur tarkibiy qismini maxsus qo'shimcha funksiyalar qo'shish orqali amalga oshirish.

### **Tasvir sifatini oshirish effektlari**

Videoni sifatini oshirishga qancha urinmaylik u mukammal bo'lmaydi agar yuqori aniqlikdagi video kameralarda olinmagan bo'lsa. Sifatini oshirish mumkin imkon boricha ya'ni uning ranglash orqali. Bugungi kunda eng keng tarqalgan video ranglash effektlari

Color collection

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### Curve

Three way color collection

Cinematic Color Correction

Film Look

Bu effektlar orqali asosan tasvirning yorqinligi, kontrasti, rangning chuqirligi va RGB ning darajasini o'zgartiradi.

Motion effect (harakatdagi effektlar)

Video effektlarning asosiylaridan biri bu vaqtni yaxlatish, sekinlashtirish, tezalshtirish, va qisqartirish hisoblanadi.

### Compositing

Compositing bu - bir nechta video va tekstlarni o'z ichida olgan va ularni maxsus effektlar bilan boyitilgan video. Kompoziting qurilmalari bernech turdagi montaj ilovalarini taqdim etadi(alfa kanal kompoziting, luma keying, chroma keying, va matte keying)

### 3d effektlar

Bugungi kunda yana filmlar va videolarning yana bir xususiyati bu 3d effektlardir. Agar siz 3d effektlar yaratmoqchi bo'lsangiz 3d ob'yektlarni yaratuvchi dasturlar mavjud.

### Miksherlash darajasi

Ishlab chiqarish jarayonidan oldingi oxirgi qadamlardan biri "miksherlash" jarayoni deb yuritiladi edi, lekin hozirda miksherlash videoni muharrirlash davomida boshlanadi, ovozni muharrirlashtiradi va yakunida sayqallangan miksherni taqdim etadi. Yakuniy miksher siz yaratayotgan to'liq metrajli film, televizion rolik va shu kabi boshqa mahsulotingizning maxsus turi hisoblanadi. miksherlashning turlarini biz siz bilan 18 bo'limda ko'rib chiqamiz. Lekin undan oldin siz miksherlash tempining o'sha darajasiga yetib borishingiz kerak.


Oddiy qilib aytganda miksherlash tahrirlanayotgan ketma-ketligingizni turli hil ovozlari darajalarini sozlash va agar kerak bo'lsa uni so'ndirish yoki tenglashtirish mumkin. Filmni tahrirlash uchun odatda, ikkita belgilangan trek uchun faqat bittagina hona ajratiladi lekin ovoz ajratilgan holda boshqariladi. Odatda bittasi dialoglar uchun va boshqasi musiqa va effektlar uchun ishlatiladi.

Bugun kunda, narsalar juda hilma hil. Rasm muharrirlari kutishadi ishlov berilmagan (qoralama) miksherlarni o'zlarining muharrirlash dasturlarida ekranlashtirish maqsadlari uchun yaxshiroq bo'lishida ishlatishadi. Ular odatda ovozlarni sakkizta trek orqali belgilashadi va darajalarni sozlashadi federlar qo'shish va hatto oddiy tenglashtirishlarni amalga oshirishadi. Mana shu jarayon miksherlash darajasi deyiladi. Ovoz muharrirlari ishga kirishish vaqtida miksher oddiy bo'lishi kerak. Ovozning darajasini sozlash ko'p vaqt talab qiladi bu esa ovoz muharririning ko'p vaqtini oladi. Ovoz muharriri o'zi ishlayotgan bo'lagi uchun yangi musiqalarning darajalarni belgilaydi. Miksherlash darajasining maqsadi u istalgan vaqtda loyihani ekranlashtirishi mumkin.

### Audio darajalarini o'lchash

Audioni sezish subyektiv sanaladi va ma'lum bir shaxsga eshitilgan ovoz shovqini balandligini boshqalar eshitmasligi mumkin. Ovozning balandligi subyektiv o'lchamni ifodalaydigan detsibelda (dB) o'lchanadi, ya'ni ovoz balandligida eshituvchanlikning o'sishi ovoz balandligini 1dBga o'sganligini anglatadi. Dasturiy va apparat ishlab chiqaruvchilar dB o'lchovini audio qiymatlar oralig'iga uskuna sifatida o'rnatadi, (15.1-shakl) lekin videodagi 1 dB qiymat tahrirlanayotgan 1dB dan balandroq yangrashi mumkin. Afsuski, bu audio bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan noaniqlikning ilk ko'rinishi sanaladi. Uni aniqlash o'rniga ovozni subyektiv qilib olingan.

Raqamli audio o'lchami 0dB da yuqorida joylashadi(15.1-shakl), hamda o'rta qiymati -12,-14 yoki -20 dB oralig'ida ishlab chiqaruvchiga bog'liq holda joylashadi. Negaki u bir uskuna bo'lagini boshqasidan farqlaydi, hamda ushbu o'rta qiymatga birlashma sifatida ham qaraladi. Ovozlar bir uskuna qismini boshqasidan ajratuvchi birlashmadan balandroq va yumshoqroq bo'lishi mumkin, lekin birlashmada aniq keluvchi ovozlar apparat yoki dasturiy qismda bir hil bakandlikda bo'lishi kerak.




### Kesish va tozalash

Siz audio darajasidagi qizil soha nima ekanligini bilmasligingiz mumkin. Oddiygina qilib aytganda u juda baland tovushkarni ko'rsatadi. Dinamik soha holatiga kelganda raqamli va analog audio darajalar har hil bo'ladi. Asosan, bu

juda baland ovozlar tabiiy bo'ldi.

Raqamli audio bilan qizil soha barcha sarflardan qochishi kerak, chunki juda baland bo'lgan raqamli audio kesib olib tashlanadi. Audioning baland qismlari tozalashning o'rniga kesib olib tashlanadi. Masalan agar, baland chastotadagi baqirayotgan kishining ovozi kesib tashlanadi va unchalik baland bo'lmagan past chastotali ovozga aylantiriladi. Natijada qichqiriq juda g'alati eshitiladi. (15.2-shakl).



### 1.10. rasm. Ovoz uchun tahrirlash ilovasini ishlatish

Ehtimol siz ovoz tahrirlash dasturidagi ovozni tahrirlash asoslaridan foydalanib, ko'pgina tahrirlarni namoyish qilishingiz mumkin - audio qoramalar shuningdek kros-feydlar va oddiy effektlarni ham. Ko'pgina tahrir to'plamlari to'liqlik ekranni namoyish etadi u ovoz ustiga yaqinlashtiradi va kesib oladi yoki taqsimlab, muammoli sohani almashtirishni osonlashtiradi (2.3 rasm). Oldin aytib o'tkanimizdek, oddiygina effektlar yaratishni va ovozni yoqimlilashtirish uchun ko'p audio filterlarni o'z ichiga oluvchi tahrirlash dasturlari kerak bo'ldi.





**1.11. rasm.** Adobe Premiere Pro dasturida audio tahrirlash uskunalari

Agar sizga qo‘shimcha ovoz tahrirlash dasturi kerak bo‘lsa, siz o‘zingizning tahrirlash ilovangizning qo‘shimcha imkoniyatlarini ko‘rib chiqishingiz kerak. Dasturingizni testdan o‘tkazing va quyidagilarga ega ekanligi tekshiring:


- **Ko‘p kanalli ovoz yozish.** Ko‘pgina mukammal darajadagi to‘plamlar audio treklarning chegaralanmagan sonini ta'nimlaydi. Garchi eng mukammal dastur to‘rttadan sakkiztagacha musiqa bilan ishlasa ham, loyihangizda yana qo‘shimcha treklar bo‘lishi yaxshi. Siz tahrir dasturingizning real vaqtda sakkizta trek bilan ishlay oladiganini tanlang.

- **Har bir trek uchun boshqaruv darajasi.** E’tibor, tahrirlash to‘plamining xususiyati hisoblanadi, doim audio trek bo‘ylab o‘tgan to‘g‘ri chiziq yuqoriga va pastga yo‘naltirilgan shaklda bo‘ladi va boshqarish nuqtasi bilan tahrirlanadi.


- **Tahrirlash audioni scrub (audio kerakli nuqtasiga olib borib tanlash) qila oladimi?** Ba’zi tahrirlar uchun audioni **scrub** qilish judayam sekin amalga oshiriladi. **Scrub** qilish bu – sichqonchani klipning istalgan joyiga surish orqali audio har hil tezlikda yangrashi hisoblanadi. Aniqrog‘i **audio scrubber** audioni sekinlashtirish uchun, va aksincha analog audio sekin ijrosini normallashtirish uchun kerak bo‘ladi. Yaxshi **scrublash** qobiliyatlari asosan talab qilingan qirqimlarni hosil qilishda yoki kerakli so‘zlarni, ohangni va bog‘inlarni aniqlashda ishlatiladi.

- **Filtrlarni sozlash.** Audio sifatini va uning muammoli joylarini sozlashda ishlatiladigan bir qancha filtrlar mavjud. Hech bo‘lmaganda, audiodagi bir qancha

ketma-ketliklarni sozlash uchun ekvalayzer filtridan foydalaniladi (2.4 rasm). Aniqrog'i belgili filtr darvoza va kompressorlarni tanlash uchun, maxsuslashirilgan ortiqcha shovqinlarni olib tashlovchi va olib tashlovchi filterlarni tanlash mumkin.




1.12. rasm. EQ sozlamasi audio tovushga past, o'rta va baland chastota berish imkonini beradi



1.13. rasm. Avid Media Composer'dagi EQ interfeysi

• **Maxsus effektlar filtrlari.** Qo'shimcha boshqaruv uchun aks-sadolar, reverberatsiyalar, kechiktirishlar va o'zgartirgichlar kabi maxsus effektlar filtrlari maxsus ohanglardan tortib atrof-muhit ohangini yaratishda ishlatilishi mumkin. Ko'pgina tahrirlash vositalari o'z ichiga to'liq jamlangan effektlar filtrlarini oladi (2.7. rasm).




**1.14. rasm.** Adobe Premier Pro dasturidagi oddiy surib-o'zgartirgich plagini

### Ovozni tahrirlash uchun dasturlar

Agar tahrirlanayotgan dasturga nigoh tashlagandan so'ng, sizga ko'proq audio tahrirlash qobiliyati zarurligi haqida qaror qilsangiz, sizga ovozni tahrirlash dasturi zarur bo'ladi. Ovozni tahrirlash qobiliyatini oshirish uchun bir qancha sabablar mavjud.

Ko'pgina tahrirlash dasturlari faqat sizga yakka qirqimlar orasini kesish imkonini beradi, albatta aniq yakka qirqimdan kichikroq intervalni tahrirlashni amalga oshirmoqchi bo'lsangiz audioni ovozni tahrirlash dasturiga joylashtirishingiz lozim.

Tasvir yoki audio tahrirlash sezilarli jarayon hisoblanadi. Qirqish jarayoni o'rni, EQ moslashuvi darajasi jarayonlari har doim nazorat ostida bo'lishi lozim. Agar siz sichqoncha bilan audio tahrirlash interfeysini afzal ko'rsangiz, nazorat oynasida yaxshiroq ta'minlani uchun audio dasturiga joylashrishi e'tibor berishingiz lozim (15.7-shakl), yoki kompyuterda o'rnatiladigan apparat qulayliklarigacha.



**1.15. rasm.** Apple SoundTrack Pro bilan Final Cut Studio mukammal audio tahrirlash boshqaruvini ta'minlashi

Maxsuslashtirilgan audio tahrirchilar boshqa kuchli audioni aniqlash va belgilash xususiyatlari bilan ta'minlaydilar. Qo'shimchasiga quyidagilarni:

- **Dastur videoni qanday o'qib oladi?** Ko'pgina audio tahrirlash dasturlari QuickTime movie dasturini ishga tushiradi.

- **Ishlatilayotgan dastur vaqtkodini qo'llab-quvvatlaydimi?** Vaqtkodi audioning kichik bo'lagini tashqi tahrirlashda zaruriy hisoblanmaydi, ovozni turli tahrirlash dasturlari yoki tizimlaridan olib, tahrirlash mumkin ("audioni ko'chirish" bo'limi). Ko'p dasturlar vaqtkodidan time-line ni sinxronlashtirish uchun foydalanadi.

- **Tahrirlash qanday dasturlar yordam beradi?** Ko'pgina tahrirlash dasturlari tasvirlarni bilan ishlaydi: Apple Final Cut Pro va SoundTrack Pro, Avid Media Composer va ProTools, Adobe Premiere Pro va Soundbooth.

- **Real vaqtda tahrirlamoqdamisiz?** Yanada osonroq tahrirlash uchun siz real vaqtda dastur effektlarini qo'shishingiz mumkin. EQ o'zgartirishda tahrirlanayotgan audioni ijrosini davomiy halqa sifatida qo'yib, o'zgarayotgan ovozni eshitishingiz maqsadga muvofiq. Ko'pgina dasturlar real vaqtda stereo effektlarni amalga oshiradi. Real jarayondagi boshqa effektlar qo'shishda maxsus apparat tizimi zarur

• **Qo'shimcha uskunalar uchun joy yetarlimi?** Maxsus tizimli uskunalar uchun qo'shimcha dasturlar o'rnatish uchun kompyuterda yetarli joy borligiga ishonch hosil qilish lozim.

• **Chegarali ovoz sifati zarurmi?** Ba'zi bir tahrirlash vositalari 5 tomonli ovoz effektini, ya'ni HD formatning barcha qulayliklari jamlagan holda yarata oladi.

Ma'lumki, agar siz audio tahrirlashni amalga oshirmoqchi bo'lmasangiz, demak dastur ham u bilan aloqador bo'lmaydi. Agar siz tahrirlangan audio mahsulotingizni so'nggi ko'rinishga keltirmoqchi bo'lib, uni tahrirlash dasturining maxsus uskunasi saqlasangiz, albatta, uni qanday olib ketish haqida ham fikr yuritishingiz lozim. Asl tahrirlangan mahsulotning barcha nusxalarini ham olib qo'yishingiz lozim. Tahrirlashni benuqson amalga oshirish uchun ovoz tahririga barcha tahrirlanayotgan audio materiallariga imkoniyati bo'lishi lozim.

Hozirda video tahrirlaydigan bir qancha dasturlar, shu o'rinda audio tahrirlash dasturlarining ham sanoqli turlari mavjud. Agarda asosiy audio tahrirlash imkoniyatidan foydalanish kerak bo'lsa, qo'shimcha uskunalarni dasturga o'rnatishingiz mumkin. Agar yanada mukammal vosita zarur bo'lsa, Avid ProTools va Apple SoundTrack Pro dasturlari professional dizaynerlar, tahrirchilar tomonidan keng foydalaniladi.

### **Nazorat savollari**

1. Video o'tishlarning videodagi o'rni?
2. Videoga motion effektidan foydalanganda nima hodisa sodir bo'ladi?
3. Video converterlar fazivalarini aytib o'ting?
4. Audio filterlarning vazifalari.
5. Audioni mastering qilishda foydalaniladiga audio effektlar.

### **Adabiyotlar va internet resurslar**

1. "The Digital Filmmaking Handbook Fourth Editioni, 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA in 2012, pages – 555.
2. Video production Fifth edition Jim Owens Gerald Millerson 225 Wyman Street, MA 02451, USA in 2013, pages – 385
3. <http://www.svoigt.net/index.php/tutorials>
4. <http://www.adobe.com/#>

## 2 – Amaliy mashg'ulot. Videoda ranglar bilan ishlash.

**Ishdan maqsad:** Adobe Premier pro dasturidan foydalanib Videoni ranglarini sifatini oshirish. Rang filterlaridan foydalanib video sifatini oshirish va oq-qora ranglar sifatini o'zgartirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchining o'zi tomonidan olingan videoni rangizni o'zgartirish

### Ishni bajarish uchun namuna

#### Rang tuzatish

Yorqin ko'k osmon, yam yashil barglar hamda zarrin kun botar ranglari bizning ko'rish hissiyotimizning asosiy qismidir. Rang kengayishi va u bilan ishlash balki sizning filmingizning tasvirini ranglarni mukkamallashtirish va yaxshilashning eng asosiy usulidir. Ba'zi film yaratuvchilari to'yingan boy ranglarni afzal ko'rsalar, boshqalari esa ayni paytda och va nozik ranglarni ma'qul kuradilar. Siz dastlab ishdab chiqarishda badiiy yunalish jarayonini boshlaganningizda allaqachon filmingiz uchun qaysi rang palitrasidan foydalanishingizni qaror qilib bulgansiz.bundan tashqari film olish jarayonida boshqa elementlar va yoritish usulini tanlash jarayonida uni takomillashtirishni davom ettirgansiz. Endi siz bu jarayonni tasvirga olingan material ranglarini to'g'rilash orqali davom ettirishingiz mumkin.

Balki siz tasvirga olish jarayonidagi ranglar tanlovidan mamnundirsiz, va hozir siz faqat qo'lingizdagi narsani mukammallashtirishni hohlayotkandirsiz. Ehtimol, siz ba'zi bir tasvirlardan o'zingizni baxtli xis etarsiz, lekin boshqa texnik masalalarni xam inobatga olish kerak. Masalan: mos kelmaydigan kameralar, yomon oq rang balansi, ekspozitsiyadagi muammolar, sizning asosiy suratga olishdagi va tasvirga olish kunidagi yorug'likning bir biriga mos kelmasligi. Barcha bu muammolar kamaytirilishi mumkin yoki butunlay rangni tuzatish orqali bartaraf etish mumkin.

Taxrir qilayotgan ilovangizni rang nazoratiga jo'natish har doim ham yomon xabar bo'lmasligi mumkin. Ko'pincha siz badiiy o'y maqsadida ranglarni o'zgartirishni xoxlaysiz.ehtimol siz aniq ta'sirchan tusni berish maqsadida tasvirdagi qizil yoki ko'k ranglarga urg'u berishni xoxlarsiz. Yoki siz ayrim ranglarni boshqalaridan ko'ra yoqtirarsiz. Sabablarning qanday bo'lishdan qat'iy nazar, rang tuzatish vositalari sizning taxrirlash dasturingizda eng ko'p foydalaniladigan ta'sir mabaalaridan bulib qoladi.

An'anaga ko'ra tasmaga oliingan kino yakunlangandan so'ng rang tuzatish jarayonidan o'tadilar. Bugungi kunda raqamli kino olish texnologiyasi yordamida rang tuzatish termini filmga so'ngi sayqal berish ya'ni film davomida ranglarning moslashtirish jarayonini anglatish va bu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni tuzatish uchun ishlatiladi. Rang tuzatish juda murakkab jarayon bo'lib, mutaxassis

koloristni yollash tavsiya etiladi. Lekin agar bu sizning byudjetingiz yoki loyixa ko'lamini qoplamasa, yakunlovchi jarayonda bu qadamni o'tkazib yuborish degani emas.

Shu paytgacha yuqorida ta'kidlangan barcha professional taxirlovchi ilovalar sizning videoingizdaga rangni tuzatish va o'zgartirish uchun murakkab vositalar bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, tasvir sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan maxsus Adobe After Effects, Apple Color kabi dasturiy ilovalar xamda Red Giant's Magic Bullet Suite paketlari mavjud.

Siz ushbu vositalarni badiiy sabablarga ko'ra yoki amaliy maqsadlarda foydalanasizmi dasturiy ta'minotning rang tuzatish xususiyatlarini anglamoqlik bu bebahodir. Ushbu bobda tasviringiz sifatini xatarga qo'ymasdan rang tuzatishning asosiy vositlar majmuasidan qanday foydalanish kerak ekanligi ko'rsitib beramiz.

### Qachon rang tuzatamiz?

Odatda, umumiy rang tuzatish tasvirni taxrirlash jarayoni oxiriga etkanda ya'ni film yopilgandan so'ng amlga oshiriladi. Biroq siz ba'zi muammolarni avvalroq tuzatishiingiz mumkin.

### Rang tuzatish

Eng asosiy darajada rang tuzatish tasvirning to'rt elementini sozlashdan iboratdir. Bular: yorqinlik, kontrast, ranglar jilvakorligi va tus. Ushbu to'rt komponent bo'linganda jarayon ancha murakkab bo'lishi mumkin. Rang tuzatish xaqida umumiy ma'lumot berish uchun ushbu to'rt komponentdan boshlaymiz.



#### 2.1. rasm. Rang tuzatishning to'rt elementi: yorqinlik, kontrast, ranglar jilvakorligi va tus. 19 rasmga qarang

*Yorqinlik* tasvir qay darajada och yoki to'qligini anglatadi. (3.2. rasmga qarang) Tasvirda yorqinlikni oshirish bu suratga olish jarayonida ekpozitsiyani ko'paytirishga o'xshashadir:butun tasvir yorqinlashadi. Odatda siz yorqinlikni tasvir aniqlashganda ozgina sozlashingiz mumkin.

#### IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

*Kontrast* tavrda oq rangdan qora rangga o'tish diapozonini anglatadi (3.3. rasimga qarang). Yuqori kontrastga ega bo'lgan tasvir xaqiqtda qora rangda bo'lib, yorqin qora va oq ranglardan iboratdir. Qancha qiziq bo'lmasin, yorug'lik va kontrast filtrlari tasvirdagi rangni umuman nazorat qilmaydi lekin ular rang tuzatishning asosidir. Siz tasvir sifatidagi ko'p muammolarni faqatgina shu ikki komponentni sozlab bartaraf etishingiz mumkin.

*Jilvakorlik* tasvirdagi ranglar miqdorini anglatadi. Jilvakorlikni oshirish yoki kamaytirish sizning rang palitragizning ko'rinishini yaxshilash usulidir. Tus tasviringizning umumiy ko'rinishidir. Rang tusini o'zgartirish oq rang balansini to'g'rilashga yordam beradi.



**2.2. rasm.** Tasvir yorqinligin sozlaganda tasvirning yuqori qismi yorqinlashadi, quyi qismi esa to'qlashadi. Yorqin tasvirda qora rang va to'q tasvirda oq ranglar kul rang tusini oladi.

Narsalarni ozgina murakkablashtirish uchungina bu to'rt komponent bir biri



bilan bog'liq, chunki turli xil tuslar turli xil yorqinlikka ega bo'ladilar. Shunday qilib, tasvirdagi yorqinlikni o'zgartirish ranglarni ozgina boshqacha qilib ko'rsatadi.

### **O'z filtr dasturlaringiz bilan o'ynang**

Hozir biz tahrirlash ilovangizni ochishingizni va ba'zi bir tasvirlaringizning yorqinlik, kontrast, ranglar jilvakorligi va tusini turli xil rang tuzatish filtrlaridan foydalanib sozlashingizni tavsiya etamiz. Shuni nazarda tutingki, sizning tahrirlash ilovangiz ranglarni sozlash uchun bir nechta usullarni taklif etishi mumkin. Ular bilan biroz o'ynang va nima yomon va nima yaxshi ko'rinayapkanligini qarang.



**2.3. rasm.** Kontrastni yaxshilash oq rangdan qora rangga bo'lgan diapazonni o'zgartiradi.

Bu erda ko'rsatilgan, past kontrastlilikni sozlash (yuqorida), o'rtacha kontrastlilikni sozlash (o'rtada) va juda yuqori (quyida). Yuqoridagi tasvir faqatgina kul rang tusda quyidagisi esa och qora va oq rangda ekanligiga diqqatingizni qarating.


### **Murakkab rang elementlarini boshqarish.**

Rang tuzatishning asosiy to'rt komponentlari ehtimol umumiy rang tusini o'zgartirishda foydasizroqdir, chunki u jilvakorlikni nazorat qilishni imkonini bermaydi, agar tasviringizda odamlarning tasviri bo'lsa. Agar siz odamlarning teri rangini tabiiylikni saqlab qolishni istasangiz, siz rang o'zgartirish jarayonida cheklovlarga duch kelasiz.

Agar sizning vidoeingiz rangini tuzatish kerak bo'lsayu lekin yorqinlik, kontrast, ranglar jilvakorligini sozlash etarli bo'lmasa, tasvirning rang tusini tashkil qilgan RGB rang kanalining ayrim qismlarida o'zgartirish kiritish kerak bo'ladi.

Uchinchi ya'ni "Raqamli Video Praymer" bobida biz rang qo'shish va raqamli video uch rang: qizil, yashil, ko'k ranglardan tashkil topkanligi haqida gaplashkan edik.

Ular birgalikda to'liq rang spektri yordamida tasvirni shakllantiradi (3.4. rasmga qarang)




**2.4 rasm.** Viderning har bir to'liq rangi qizil, yashil va ko'k rang kanalidan tashkil topgan

Rang tuzatishning ancha murakkab vositalari har bir rang kanalini alohida sozlashga imkon beradi. (3.5. rasmga qarang). Bu erda rang boshqarish darajasi aniq detallarda berilishi mumkin. Siz yorqinlik, kontrast va ranglar jilvakorligini har bir RGB kanalida sozlashingiz mumkin. Ba'zi filtrlar har bir kanalni muayyaan

#### IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

yorqinlik diapozonida: soyalar, o'rtacha tuslar va tasvirning yorqin joylari ko'lamida sozlash imkonini yaratadi.

Tasvirning soya va yorqinlik tusini sozlash orqali siz odatda o'rta tus ko'lamiga tushadigan teri rangidagi ranglarning aralashuvini oldini olishingiz mumkin.



**2.5. rasm.** Adobe Premiere Pro rang balansi filtri xar bir rang kanali (qizil, yashil va ko'k) uchun nazorat to'liq majmuini taklif etadi. Va xar bir qismi nashrida qator (soylari, o'rtahanglar).

#### Rangni ko'rish

Rangni hisobga olish bu juda oqilona jarayon bo'lib, xonadagi ranglar miqdori, siz foydalanayotgan monitor turi va xona devorlari rangi unga ta'sir qilishi mumkin.

Sifatli yaxshi monitordan foydalanish va ranglar bilan ishlash jarayonidagi xonaning yoritish sharoiti, ranglarni eng muvofiq usulda ko'rish uchun muxim ahamiyat kasb etadi. atrofingizdagi yorug'lik, ranglar va qora rang darajasini noto'g'ri baholashingizga sabab bo'ladi.

Agar sizning loyihangiz teatrning qorong'i binosida ko'rilishi kerak bo'lsa, siz ham rang tuzatish ishlarini shunday muhitda olib borishingiz kerak. Ko'pchilik film va TV loyihalar qorong'i muhitda ko'rish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli, tahrirlash xonalari qorong'i va devorlari neytral kul rangga bo'yalgan. Video tasvirdagi ranglar balansini ko'z bilan baholash vaqti bilan qiyinchilik tug'diradi ammo video tasvirni yaxshitoq ko'rish imkonini beradigan vositlarga bor. Bular: ostsillogramma va vektoroskopdir. (3.6. rasmga qarang).

Ostsillogramma video signaldagi yorqinlik va qorong'ilikni namoyish etadi.

#### IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

Ostsillogrammaning chap qismida yorug'likni IRE deb nomlangan birliklarda o'lchaydigan shkalasi joylashgan. Tiniq oq rang 100 IREda qoran rang yoki 0da yoki 7.5 IREda belgilanadi. tasvir juda och yoki juda to'q ekanligini siz ostsillogramma ekrniga qarab ko'rishingiz mumkin. (3.7. va 3.8. rasmlarida) ko'rsatib o'tilgandek. Keyinchalik bu bobda biz ostsillogramma ekrani yordamida qora va oq ranglar darajasini qanday sozlashni ko'rsatib o'tamiz. Ko'pincha xamma narsa o'z o'rniga tushadi agar siz shu ikki asosiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsangiz






Figure 16.6

A simplified waveform (left) and vectorscope (right) displaying the SMPTE color bars test pattern.






Vektoroskop video signalning rangdorligi haqidagi ma'lumotni ko'rsatadi. Vektoroskop rang g'ildiragiga o'xshash bo'lib, har bir yuza rang spektrining turli qismini namoyish etadi. Bundan tashqari har bir bo'limda har bir rangning mukammal o'rni va darajasini ko'rsatuvchi kichkina quti bor. (YL sariq, R qizil va h.z).

Bu qutilarning tashqarisidan o'tadigan o'ar qanday rang va tasvir juda ranglarga to'yingan bo'lib, tasvir sifati kamayishiga olib keladi. (3.9. rasimga qarang). Oq va qora rang darajasini tekshirib bo'lgandan so'ng siz rang ma'lumoti to'g'ri sozlanganligida amin bo'lishingiz uchun vektoroskopdan foydalanishingiz mumkin. Shuningdek video darajalarini tekshirish maqsadida, siz ostsillogramma va vektoroskopni ko'rish uchun apparat yoki dasturiy ta'minotli monitordan foydalanishingiz mumkin.

Mutaxassis koloristlar apparat ta'minotli monitorlarni afzal ko'radilar, ammo ko'pchilik har qanday tahrirlash quroli bo'lgan dasturiy ta'minotli monitorlar extiyojlarini qoplash uchun etarli deb hisoblaydilar. shuni nazarda tutinki, ostsillogramma va vektoroskop video signalning o'ziga hech qanday ta'sir ko'rsaimaydi, ular faqatgina oddiy video monitorlar kabi ularni namoyish etadilar ya'ni ko'rsatadilar. Video signalni o'zgartirish uchun siz rang tuzatish filtrlaridan tahrirlash ilovangizda foydalanishingiz kerak bo'ladi.

Ostsillogramma va vektoroskop bitta asosiy vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Ular rang tuzatish xaddan ziyod oshirib yuborganlikni va tasviringiz sifati yomonlashib borayotganini bilishingizni imkonini beradi. 100 IRE ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan oq rang va 7.5 IRE ko'rsatkichiga ham yaqin kelmaydigan qora ranglar va vektoroskop aylana chegarasidan chiqib ketgan ranglar, tasviringiz sifati jiddiy ahvolda ekanligin belgilaridir.



**2.6. rasm.** Ushbu tasvirning vektoroskopi shuni ko'rsatadik qizil rang juda to'yingan va asosiy muammo neon yorug'ligidadir. (23 - rang palitrasiga qarang)

### Xavfsiz ranglar

NTSC va PAL videolarini kompyuter monitoridan ko'ra kamroq rang gammalariga ega. Bu shuni anglatadiki, kompyuteringiz ekranidagi ranglar muvofiq ko'rinmaydi, aslida NTSC monitorida ko'ringanida ular bir xil rangda ko'rinishi mumkin. Eng yomoni to'yingan ranglar ekranda qizil tusga aylanadi. Ko'pchilik taxiriy ilovalar grafikingizni NTSC xavfsiz ranglarga o'giradigan filtrlar bilan ta'minlaydi.

### Ilmiy yondashuv

Ostsillogramma va vektoroskoplardan foydalanish tasodifiy tasviringizning sifati yomonlashish jarayonida rang tuzatish tanlovini oldini olish uchun yordam beradi. Ammo ular ta'minlagan qo'llanmada izoh uchun ko'p joy ajratilgan va yaxshi ko'rish qobiliyatini yaxshilashni rivojlantirishning hech qanday o'rnini bosuvchi narsa yo'q. Bundan tashqari o'z fikringizga ishonishni o'rganishingiz lozim. Oxir oqibatda eng yaxshi koloristlar qiladigan ishi: film yoki videolar asosiy sifat nazorati testidan o'tishiga amin bo'lishadi va shundan so'ng ular mo'jiza yaratadilar. Video bilan ranglar qanday ishlashi haqida ozgina bilimga ega bo'lish albatta yordam beradi.

Sizga bolaligingizda ranglar bilan ishlash va ular bir-biri bilan qanday aralashishini o'rgangansiz. Sariq, qizil va ko'k ranglar asosiy bo'lib, qizil rangga yashil, ko'kka zarg'aldoq (apelsin rang) va sariq rangga siyoh ranglar qarama-qarshi turadi. Bu qarama-qarshi rangla ikkilamchi ranglar hisoblanadi. Boshlang'ich maktabda ranglarni o'zgartirish tizimi o'rgatilgan bo'lib, bu subtraktiv (ayirma) ranglar bo'yoq, rangli qalam, siyoh va boshqalar bilan hosil qilinadi.

Video film tasmasigaga o'xshab yorug'likdan iborat va yorug'lik rang qo'shish qoidasiga rioya qiladi. Videoning asosiy ranglari yashil, qizil va ko'k bo'lib, ikkilamchi ranglar esa havorang, pushti va sariq ranglardir. Videoda qizil rangning qarama-qarshisi havorang bo'lsa, yashil rangga pushti va ko'k rangga sariq ranglardir.

3.5. rasmda ko'rsatilgandek, RGB qizil, yashil va ko'k rang balans filtrlari videosignaldagi qizil, yashil va ko'k kanallarni nazorat qilish imkonini beradi. Ular siljish shkalasida ishlaydi, agar siz ko'k rangni kamaytirsangiz, uning qarama-qarshisi bo'lgan sariqni oshirishinigz kerak, qizil rangning kamayishi havorangni oshiradi va yashil rangning kamayishi pushti rangni oshiradi.

Va nihoyat shuni esda tutingki, filmingiz rangi ustida ishlayotganingizda teri rangini oshirish lozim. Osmonni yorqin yashil rangda bo'lishi, aktrisa yuz terisini rangini ko'k rangga o'zgartirib yubormasa juda ajoyib ko'rinishi mumkin. Agar siz rang tuzatish tanlovida ikkilansangiz, aktrisangiz teri rangiga e'tiborliroq bo'ling va bu ishonchingiz komil bo'lishining eng oson usulidir.

### **Avval sozlagan tasvirlaringizni saqlang**

Rang moslashtirish filtrlari bilan ishlash jarayoningizda yoqtirgan rang filtrini saqlab qo'ying. Bir qancha tasvirlarni to'g'rilash uchun ulardan foydalanishingiz mumkin.

### **Yaxshi narsalar juda ko'p**

Tahrirlash ilovaningizda rang tuzatish filtrlaringizdan foydalanyotgan bo'lsangiz, ehtimol siz tasviringiz ko'rinishini keskin o'zgartirish ko'p vaqtni talab qilmasligini sezgandirsiz. Unga qarash qiziq tuyulsa kerak, lekin yakunlovchi mahsulotingizda kamdan kam bunday keskin o'zgartirishlardan foydalanasiz. Rang tuzatishni haddan ziyod qo'llash mumkin ekanligini tan olish muhimdir. Rang tuzatish filtrlardan keragidan ortiq foydalanish mana shu narsalarga olib keladi.

Raqamli tasvir har qaysi pikselni aks ettiradigan sonlardan iborat bo'ladi. Rang tuzatish (moslashtirish) vositalari murakkab o'zgarishlar yordamida ushbu sonlarni oddiygina boshqaradi. Afsuski, raqamli tasvir rang ma'lumotining chegaralangan miqdorini o'zida aks ettiradi. Siz uni boshqarishingiz mumkin, lekin natijada o'zingiz yoqtirgan tuzatishni bajarish uchun etarli ma'lumot yo'qligini ko'rasiz. Shunda, siz tasviringizga sun'iy detallarni kiritasiz. Raqamli tasvirda rangni moslashtirganingizda, kompyuter ko'pincha tasvir ma'lumotini uloqtirib tashlashiga to'g'ri keladi. Bu amallarning natijasi bir hil bo'ladi: kam tasvir ma'lumoti bilan tasvirdagi ba'zi rang yoki tus va rasmdagi bir hil rang yuzasida namoyish etiladi.

